

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI
MAGISTRATURA BO'LIMI**

Qo'lyozma huquqida

UDK: 336.36

**BOYNAZAROV ALIBEK UROLOVICH
MILLIY SUG'URTA BOZORI SIG'IMINI
KENGAYTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI**

Mutaxassislik: 5A231201- "Sug'urta ishi"

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar:
i.f.d., prof Imomov Sh.B.**

TOSHKENT-2014

Dissertatsiya Toshkent moliya instituti “Sug’urta ishi” kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar

i.f.d., prof Sh. Imomov

Kafedra mudiri

i.f.n., dots I.Ochilov

**Magistratura bo’limi
boshlig’i v.b.**

i.f.n., dots U.Ortiqov

Mundarija		
	KIRISH	
I BOB	Milliy sug'urta bozori tashkil topishi va uning moliyaviy-iqtisodiy kategoriya sifatida shakllanishi	
1.1.	O'zbekiston sug'urta bozori tashkil topishining tashkiliy-huquqiy asoslari.....	
1.2.	Milliy sug'urta bozori sig'imining metodologik ahamiyati va uning makroiqtisodiy o'rni	
	I bob bo'yicha xulosa.....	
II BOB	O'zbekistonda milliy sug'urta bozori va sig'imining rivojlanish tendensiyalari	
2.1.	O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanish xususiyatlari va zaxiralari tahlili.....	
2.2.	Sug'urta bozorisig'imining klaster (omilli) tahlili.....	
	II bob bo'yicha xulosa.....	
III BOB	O'zbekistonda sug'urta bozori sig'imini kengaytirishning istiqbolli yo'nalishlari	
3.1.	Sug'urta kompaniyalarining rivojlanish istiqbollari (O'zagrosug'urta DASK (AJ)) misolida	
3.2.	Sug'urta bozori sig'imini kelajakda kengaytirish mexanizmi.....	
	III bob bo'yicha xulosa.....	
	Xulosa va takliflar	
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	
	Ilovalar	

KIRISH

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi. O'zbekistonda mustaqillik yillarida xalqaro tajribalarni umumlashtirgan holda bozor iqtisodiyotiga xos sug'urta tizimi rivojlanib bormoqda. Albatta, o'tish davrida amalga oshirilgan sug'urta siyosati ishlab chiqarishning to'xtovsiz amalga oshirilishini ta'minlaydigan va aholi manfaatlarini ijtimoiy kafolatlaydigan sohaga aylanib bormoqda. Sug'urta bozorini rivojlantirish bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi, davlat mulkining xususiylashtirilishi, tadbirkorlik faoliyatining barqaror sur'atlarda rivojlanishi ishlab chiqarish faoliyatiga fuqarolarning manfaatlari bilan bog'liq zararlarning qoplanishida sug'urtalashga bo'lgan talabning oshib borishidan, sug'urtalash sohasi munosabatlariga yangi sug'urta ob'ektlari va sub'ektlari jalb etilishi orqali bo'sh mablag'larni investitsiyaga jalb etgan holda daromadlar ko'paytirilishidan dalolat beradi. Yuqoridagilar sug'urta ishi va sug'urta bozorini rivojlantirish, uning huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy boshqarish mexanizmini takomillashtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov alohida ta'kidlab o'tganidek: "... sug'urta tizimisiz barcha xo'jalik sub'ektlari, ayniqsa kichik va o'rta biznes sub'ektlari, qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilar samarali ishlashlariga, investitsiya faoliyat bilan shug'ullanishlariga kreditlar olish imkoniyatlaridan mahrum bo'ladilar"¹. Sug'urta ijtimoiy ishlab chiqarishni turli xil xavf-xatarlardan himoyalash bilan davlatning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, sug'urta bozor munosabatlarining salbiy ta'siridan moddiy jihatdan nochor aholi qatlamlarini ijtimoiy himoyalashda jamiyatning muhim tarmog'i sifatida xizmat qiladi. Sug'urta tizimi xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga jalb etilishini kafolatlashi natijasida mamlakatimizga mustaqillik

¹Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.-Toshkent."O'zbekiston".1999.120 b

yillarida xorijiy investitsiyalar kirib kela boshladi. Bu esa, respublikamizda mashinasozlik sanoati rivojlanishiga, qishloq xo'jaligi xom-ashyosini qayta ishlash sanoati shakllanishiga, qurilish va yangi ob'ektlar barpo etilishiga, xizmat ko'rsatish sohasining jadal sur'atlarda rivojlanishiga va yangi isho'rinlari tashkil etilishiga asos bo'ldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, milliy sug'urta bozori sig'imini rivojlantirish va jahon sug'urta bozori talablari asosida rivojlangan mamlakatlarning sug'urta bozorlari darajasiga etkazish va xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish sug'urta faoliyatidagi muhim vazifalardan biriga aylandi. Ushbu holat dissertatsiyaishi mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. O'zbekiston milliy sug'urta bozori va ushbu bozorda faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalari tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

Sug'urta bozorini sig'imini kengaytirish yo'llarini izlab topishga olib keladigan iqtisodiy munosabatlar tadqiqot predmetini tashkil etadi

Tadqiqot maqsadi va vazifalari – Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston sug'urta bozori sig'imini kengaytirish va rivojlantirish yo'llarini tadqiq qilish va amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Yuqorida ko'rsatilgan maqsadga erishish uchun tadqiqot ishida quyidagi asosiy vazifalar belgilangan:

- O'zbekiston sug'urta bozori tashkil topishining tashkiliy-huquqiy asoslari o'rganish;
- Milliy sug'urta bozori va uning makroiqtisodiy o'rnini o'rganish va tahlil qilish, milliy sug'urta bozori sig'imi va uning metodologik ahamiyatini o'rganish;
- O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanish xususiyatlarini o'rganish;
- Sug'urta bozori sig'imini kengaytirishga ta'sir etuvchi omillarni klaster tahlil qilish;

- Jahon amaliyotidan kelib chiqqan holda sug'urta kompaniyalarining rivojlanish istiqbollarini izlab topish;
- Sug'urta bozori sig'imini kengaytirish ug'urta faoliyatini rivojlanishidagi muammolarni aniqlash va ularni hal etishga va sug'urta sig'imini kelajakda kengaytirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan taklif va ilmiy tavsiyalar berish.

Tadqiqotning asosiy farazi. Tadqiqot farazi sifatida O'zbekiston sug'urta bozori sig'imini rivojlanishini yaxshilash natijasida sug'urta bozori bo'yicha ko'rsatkichlar keskin oshadi, degan ilmiy faraz qabul qilingan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha qator izlanishlar olib borilgan. Sug'urta bozori rivojlantirish va takomillashtirish masalalari bilan mamlakatimizda sug'urta faoliyati va sug'urta bozori rivojlanishining yo'nalishlari iqtisodchi olimlar M.Asqarova, G.Axunova, H.Boyev, T.Boymurotov, O.Jo'rayev, Sh.Imomov, M.Mirmaqsudov, X.Shennayev, A.Erkayev, A.Nurullayev, Y.Tursnov, M.Xodjayeva, A.Shermuxeimedov, R.Husanov, A.Yadgarovlarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan. Hamda xorijiy internet saytlarida sug'urta bozorini rivojlanishi va sig'imini kengaytirish masalalari bo'yich ma'lumotlar berilgan.

Respublikamizda nisbatan yosh lekin barqaror o'sish sur'atlarini namayon etayotgan sug'urta bozori mavjud. O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini rivojlanishi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urta xizmatlarini ko'rsatish ko'lami kengayib, sifat ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar yuz beryapti. Sug'urta faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlanib, muntazam takomillashtirilib borilmoqda. Shularni inobatga olganda, sug'urta faoliyatini tashkil etish, uni rivojlantirish orqali jahon sug'urta bozoriga chiqish hamda sug'urta xizmatlari bozori rivojlanish tendensiyalarini baholash hamda milliy sug'urta kompaniyalarini sug'urta bozorida faoliyatini yanada rivojlantirish, sug'urta bozori istiqbolini belgilash

mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va demokratik bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirishning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot uslublar. Dissertatsiyani yozishda tizimli tahlil, nazariy va amaliy tahlil, tarkibiy va solishtirma tahlil. Shuningdek, statistik materiallarni tahlil qilish va qayta ishlashda guruhlariga bo'lish, qiyosiy tahlil, kuzatuv, umumlashtirish tanlab olish va iqtisodiy-statistik uslublari qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqot ishining ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

- sug'urta bozori rivojlanish tendensiyalari, mamlakatimiz va chet ellik olimlarning ilmiy asarlariga tayangan holda sug'urta bozori sig'imini kengaytirishning nazariy jihatlari tadqiq etildi.

- sug'urtalovchilarning sug'urta bozoridagi faoliyati va sug'urta bozorini rivojlantirishdagi muammolar o'rganildi va ularni yechish yo'llari aniqlandi;

- sug'urta bozori sig'imini kengaytirishiga ta'sir etuvchi omillar va ularning klaster tahlili qilindi.

- sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta maxsulotlarini sotish va ularni faoliyatini kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy natijalari milliy sug'urta bozori sig'imi kengaytirish yo'nalishlari mexanizmini takomillashtirishda qo'llanilishi mumkin. Tadqiqot ishi natijalarining amaliy ahamiyati, dissertatsiyaning ilmiy taklif va amaliy tavsiyalari respublikamiz sug'urta tashkilotlari faoliyati va sug'urta xizmatlari kompleks rivojlantirishiga qaratilgan hukumatning maqsadli dasturlari, va chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilishida qo'llanishi mumkin.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi. Dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, uchta bob, xulosalar va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Tadqiqot ishining umumiy hajmi 89 bet bo'lib, 10 ta jadval va 17 ta rasmdan iborat.

1 BOB. MILLIY SUG'URTA BOZORI TASHKIL TOPISHI VA UNING MOLIYAVIY-IQTISODIY KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANISHI

1.1.O'zbekiston sug'urta bozori tashkil topishining tashkiliy-huquqiy asoslari

O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishi davlat miqyosida ijtimoiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralgan bo'lib, mavjud shart-sharoitlar, milliy sug'urta an'analari va madaniyati hisobga olingan xolda isloh etilgan va milliy sug'urta bozori tashkil topishi va shakllanishi sekin-astalik bilan tubdan o'zgarib borgan va bir nechta bosqichlarni bosib o'tgan².

Respublikamiz sug'urta bozori isloh etilishinibirinchi bosqichi(1991-1996 yillar) sug'urta bozoriga xususiy sug'urta kompaniyalarni kirib kelishi va Davlat sug'urtasi(Gosstrax)ni transformatsiyasi jarayoni boshlanishi bilan bog'liq bo'lib, shakllanayotgan tadbirkorlikning huquqiy bazasi bilan qo'llab-quvvatlangan. 1991 yilning o'zida milliy iqtisodiyotimizni islohqilinishini qonuniy rasmiylashtirilishiga asos solgan "O'zbekiston Respublikasidagi tadbirkorlik xaqida"gi, "O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risida"gi kabi o'sha davrning progressiv qonunlari qabul qilingan. "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi" (kodeksning 52-bobi sug'urta masalalariga bag'ishlangan) amalga kiritilguniga qadar (mart 1997 yil) "O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risida"gi qonun xo'jalik yurituvchilar tomonidan Respublikamizning o'ziga xos iqtisodiy konstitutsiyasi sifatida qaralgan.

1992 yil 31 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Vazirlar Mahkamasining 605-sonli qarori bilan O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1979 yil 9 oktyabrdagi "O'zbekiston SSR davlat tekshirish organlari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash xaqida"gi 700-sonli qarori bekor qilinib, "O'zbekiston davlat

²Умаров С.А. "Становление и развитие рынка страховых услуг в Узбекистане",//Страховое дело, 2007 yil yanvar. .

sug'urta organlari to'g'risida»gi Nizom tasdiqlangan. Ushbu Nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi O'zbekiston Respublikasi Davlat sug'urta bosh boshqarmasi ("O'zdavsug'urta") va unga bo'ysunuvchi davlat sug'urta boshqarmalari va nazorat muassasalari O'zbekiston Respublikasi davlat sug'urta organlari hisoblangan. "O'zdavsug'urta" O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida bo'lib, to'la xo'jalik mustaqilligi sharoitida ish olib borgan va davlat sug'urta organlarining yagona tizimini tashkil etgan³.

Bu davrda nodavlat sug'urta kompaniyalari faoliyat yuritgan bo'lsalarda, sug'urta sohasida Davlat sug'urta organlari ustun kelgan. Chunki, "O'zdavsug'urta" butun Respublika bo'yicha tarqalgan keng tarmoqqa va barqaror davlat strukturasi imidjiga ega bo'lgan. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 23 dekabrda qaratilgan qarorlari bilan amalga kiritilgan, fuqarolarga qarashli mol-mulkining davlat majburiy sug'urtasi va qishloq xo'jaligi korxonalari mol-mulkining davlat majburiy sug'urtasi kabi va boshqa sug'urtagaoid qonun xujjatlari "O'zdavsug'urta"ga majburiy sug'urtani amalga oshirishga ustunlik bergan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish, erkin raqobatni talab qilishi va O'zbekiston Respublikasida sekin astalik bilan Davlat sug'urta tashkiloti o'rnida yangi sug'urta tashkilotlarini tuzish zaruriyati tug'ilganligi sababli, 1993 yil 6 mayda tijorat sug'urtasi amalga oshirilishiga, sug'urta faoliyati davlat nazoratiga va milliy sug'urta bozorida chet el sug'urtalovchilarning faoliyat yuritishlariga huquqiy asos solgan hamda "O'zdavsug'urta"ning yakka hokimligini bartaraf etilishiga manba bo'lib xizmat qilgan "Sug'urta to'g'risida"gi qonun amalga kiritildi. Lekin, 1997

³"O'zbekiston Respublikasi Hukamati qarorlari yo'plami" – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. 1992, 12-son, 40-modda.

yilga qadar barcha nodavlat sug'urta kompaniyalari xissasiga umumiy sug'urta mukofotlari tushumining bir foizidan ham kam bo'lgan ulush to'g'ri kelgan⁴.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta to'g'risida"gi qonuni amalga kiritilganidan so'ng, 1994 yil aprelda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida investitsiyalarning sug'urta ximoyasini ta'minlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi 206-sonli qaroriga asosan "O'zbekinvest" milliy sug'urta kompaniyasi tashkil etildi. Shu yilning o'zida MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib, ustav sarmoyasi 100 million AQSh dollari bo'lgan O'zbekiston Respublikasiga yo'naltirilayotgan xususiy chet el investitsiyalarini siyosiy tavakkalchiliklardan sug'urtaviy ta'minlaydigan "O'zbekinvest Interneshnl" kompaniyasi tashkil etildi va London shahri (Buyuk Britaniya)da ro'yxatdan o'tkazildi.

Bundan tashqari Respublikamiz hududida "Uz-AIG" va "Uzbeksug'urta-AON-Lixu"qo'shma sug'urta kompaniyalari, "Umid", "Yo'lovchi" kabi xususiy kompaniyalar va boshqa 60 taga yaqin davlat va xususiy sug'urta kompaniyalari⁵ faoliyat yuritgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 26 iyuldagi "Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni sug'urta yo'li bilan himoya qiluvchi agentlikni tashkil qilish to'g'risida»gi farmoni bilan tadbirkorlikni va kichik biznesni jadal rivojlantirish, tadbirkorlik xarakati davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini hamda kreditorlarga qarz kapitali evaziga kafolatlar berilishini ko'zda tutuvchi dasturlarni ro'yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar vujudga keltirilishi maqsadida 10,0 million so'm ustav jamg'armasi bilan "Madad" sug'urta agentligi tashkil etildi.

⁴Мирсодиқов М.А. "Этапы реформирования страхового рынка республики как важнейшего элемента финансовой инфраструктуры страны". – O'zbekiston Respublikasi bank va moliya tizimlarida islohotlarni chuqurlashtirish muammolari (Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.) –T.: "Moliya", 2005.125 b.

⁵Чжен В.А va boshqalar.Bozor qonuniyati asoslari. –T.: "Toshpoligrafkombinat", 1996 y. 385-386-b.

1993 yil 7 mayda qabul qilingan “Umumiy foydalanishdagi xavo, temir yo’l, ichki suv va avtomobil transporti yo’lovchilarining majburiy shaxsiy sug’urtasi to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi qonuni, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 26 yanvardagi “Harbiy xizmatchilar va xarbiy majburiyatli shaxslarning, oddiy askarlar hamda boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning davlat majburiy shaxsiy sug’urtasi to’g’risida”gi, 1994 yil 16 iyuldagi “Ko’mir, neft, gaz qazib olish va geologiya-razvedka ishlari tizimi xodimlarining majburiy davlat sug’urtasi to’g’risida”gi xamda 1994 yil 30 dekabrda “O’zbekiston Respublikasida transport vositalari va boshqa o’ziyurar mashina xamda mexanizmlar egalari fuqarolik javobgarligining majburiy sug’urtasi to’g’risida”gi qarorlari ayrim sohalarda risklarni kamaytirishga, ushbu sug’urta turlarini amalga oshiruvchi sug’urta kompaniyalari strukturasi rivojlanishiga xizmat qilib, sharoit yaratgan xolda sug’urta sohasidagi shu davrning sug’urta sohasini rivojlanishi uchun sharoit yaratib bergan muhim qonun xujjatlari bo’ldi.

Ikkinchi bosqich (1997-2002 yy.) ni bugungi kunda peshqadam bo’lgan sug’urta bozorining asosiy ishtirokchilari shakllangan bosqich deb atasak mubolag’a bo’lmaydi.

Bu bosqichda, Hukumatimiz rahnamoligida bozor iqtisodiyoti sharoitiga xos yirik sug’urta kompaniyalari tashkil etildi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 18 fevraldagi “O’zbekinvest” eksport-import milliy sug’urta kompaniyasini tashkil etish to’g’risida»gi farmoniga muvofiq “O’zbekinvest” milliy sug’urta kompaniyasi “O’zbekinvest” eksport-import milliy sug’urta kompaniyasiga aylantirildi. Kompaniyaning ustav sarmoyasi 60 million AQSh dollariga tenglashtirildi va daromadidan olinadigan soliqdan xamda mulk solig’idan besh yil muddatga ozod qilinib, soliq solishdan ozod qilingan barcha mablag’lar kompaniyaning ustav sarmoyasini xamda uning sug’urta zahiralarini jang’armasini ko’paytirishga yo’naltirilishi belgilandi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 25 fevraldagi PF-1713-sonli farmoni bilan O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshidagi Davlat

sug'urta Bosh boshqarmasi negizida ochik aktsiyadorlik jamiyati shaklida 2 000,0 million so'm ustav jamg'armasi bilan "O'zagrosug'urta" Davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi tashkil etildi va shu bilan sug'urta soxasidagi davlat monopoliyasiga barham berildi⁶.

"O'zagrosug'urta" Davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi xam daromad solig'i va mulk solig'i to'lashdan besh yil muddatga ozod qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 25 fevraldagi PF-1713-sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 6 martdagi "O'zagrosug'urta" Davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'grisida"gi qarori bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari, korxonalar va qishloq joylarida yashovchi aholi mulkiy manfaatlarining sug'urta himoyasi kompaniya faoliyatining ustuvor yo'nalishi etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 31 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi davlat sug'urta organlari to'grisidagi nizomni tasdiqlash xaqida"gi va 1993 yil 23 dekabrda "Jamoalari, davlat xo'jaliklari va boshqa davlat qishloq xo'jalik korxonalari mol-mulkining davlat majburiy sug'urtasi to'grisida"gi qarorlari bekor qilindi.

Ko'p o'tmay, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 14 martdagi 144-sonli qarori bilan "Kafolat" Davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi tashkil etildi va Respublika shaharlarida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urta xizmatlarini ko'rsatish "Kafolat" Davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi faoliyatining ustuvor sohasi etib belgilandi.

⁶Мирсодиқов М.А. "Этапы реформирования страхового рынка республики как важнейшего элемента финансовой инфраструктуры страны". – O'zbekiston Respublikasi bank va moliya tizimlarida islohotlarni chuqurlashtirish muammolari (Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.) –T.: "Moliya", 2005.125 b.

Shuningdek, mazkur sug'urta kompaniyasi sug'urtaning majburiy davlat turlarini o'tkazishga vakil qilindi⁷.

Shu tariqa, bu davrda sug'urta bozori bo'lindi, ixtisoslashdi. "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi tashqi iqtisodiy faoliyat va chet el investitsiyalari sohasida, "O'zagrosug'urta" Davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalashda va qishloq joylarida transport egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasini amalga oshirishda, "Kafolat" Davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi shahar joylarida transport egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasini va boshqa majburiy davlat sug'urtasi turlarini amalga oshirishda hamda shaharlarda joylashgan yuridik hamda jismoniy shaxslarni sug'urtalashda, "Madad" sug'urta agentligi esa tadbirkorlik va kichik biznesni sug'urtalashda faoliyat ko'rsatib, mashg'ul bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (mart 1997 yil) amalga kiritilishi bilan sug'urta bozorining asosiy va muhim bo'lgan qonun xujjatlari shakllanishi o'z nihoyasiga etdi. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 26 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta to'g'risida"gi qonuniga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar, sug'urtaning majburiy turlarini amalga oshirishdagi Davlat sug'urta tashkilotlarining yakkahokimligini bartaraf etdi va bu holat nodavlat sug'urta tashkilotlari rivojlanishining rag'batlantiruvchi omili bo'lib xizmat qildi.

Bu bosqichni O'zbekistonda sug'urta faoliyatini Davlat tomonidan nazorat qilishni shakllanishi bosqichi deb xam atash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 8 iyuldagi "Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish

⁷O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 14 martdagi 144-sonli "Kafolat" Davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori. –"Norma" huquqiy bazasi.

funktsiyalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga yuklatildi. Vazirlikning markaziy apparatida sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi tashkil etildi⁸.

Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan Respublikada faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlari zimmasiga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida qayta ro'yxatdan o'tish majburiyati yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 14 avgustda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlarini qayta ro'yxatga olish to'g'risidagi vaqtinchalik nizom"ga muvofiq qayta ro'yxatdan o'tkazilgan sug'urta tashkilotlariga berilgan qayta ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma o'ziga xos litsenziyani ifoda etgan⁹.

Bu davrda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida o'z faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urta tashkilotlarining aktivlariga doir majburiyatlarini me'yoriy nisbatlariga alohida talablar qo'yildi, sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi tomonidan sug'urta tashkilotlari faoliyatini tekshirish tartibi to'g'risida yo'riqnoma tasdiqlandi, davlat mablag'lari va hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobiga barpo etilayotgan qurilishlardagi qurilish tavakkalchiliklari majburiy sug'urtasi joriy etildi, sug'urta tashkilotlari mansabdor shaxslarini attestatsiyadan o'tkazishni, sug'urta agentlari faoliyatini¹⁰, sug'urta tashkilotlari tomonidan sug'urta rezervlarini joylashtirilishini

⁸"Собрание постановлений Правительства Республики Узбекистан", – Т.: Министерство Юстиции Республики Узбекистан. 1998 г., № 7, ст. 24

⁹"Временное положение о порядке перерегистрации страховых организаций, осуществляющих деятельность на территории Республики Узбекистан", 1998 yil 14 avgustda 40-son bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan. (Adliya vazirligining 2001 yil 14 iyuldagi 93-mx-sonli buyrug'i bilan davlat reestidan chiqarilgan.) - "Norma" huquqiy bazasi.

¹⁰"Положение о страховых агентах, осуществляющих свою деятельность на территории Республики Узбекистан", 2000 yil 3 martdagi 28-son bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan. (Moliya vazirligining 2003 yil 28 yanvardagi 19-sonli buyrug'i bilan o'z kuchini yo'qotgan) - "Norma" huquqiy bazasi.

xamda hayot sug'urtasidan tashqari sug'urta turlari bo'yicha sug'urta rezervlarini shakllantirishni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy xujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston sug'urta bozori shakllanib, rivojlanishining uchinchi bosqichi 2002 yil boshida "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi bilan boshlanib bugungi kunda ham davom etmoqda¹¹.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunisug'urta munosabatlari ishtirokchilarining aniq huquq chegaralarini, sug'urta faoliyati ishtirokchilari tarkibini belgilab berdi. Sug'urta ikki sohaga, hayotni sug'urtaqilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urtaqilish) va umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urtaqilish hamda hayotni sug'urtaqilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari) sohalariga bo'lindi. Sug'urta sohalarida esa sug'urta tavakkalchiliklari yoki ular guruhlarining va ular bilan bog'liq majburiyatlarning umumiy xususiyatlariga muvofiq sug'urta turlari(klasslari)ga bo'lindi.

Sug'urta xizmatlari sohasidagi erkinlashtirish jarayonini yanada rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, respublikada sug'urta bozorini taraqqiy ettirishning iqtisodiy omillarini kuchaytirish, sug'urta tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash xamda ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlanishi maqsadidaO'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 31 yanvardagi farmoniga muvofiq mulkchilik shakllaridan kat'i nazar, sug'urta tashkilotlari 3 yil muddatga daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod qilindi va buning natijasida bo'shaydigan mablag'lar aniq maqsad, ya'ni mazkur tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga, mintaqalarda keng tarmoqli agentlik shahobchalarini tashkil etishga, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga, shu jumladan, chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashga

¹¹Мирсодиқов М.А. "Этапы реформирования страхового рынка республики как важнейшего элемента финансовой инфраструктуры страны". –Ўзбекистон Республикаси банк ва молия тизимларида ислохотларни чуқурлаштириш муаммолари (Халқаро илмий-амалий конференция.) – Т.: "Молия", 2005 й. 125-126 бетлар.

yo'naltirildi. Shuningdek, yuridik shaxslarning ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha sarf-harajatlari daromad (foyda) solig'ini hisob-kitob qilish chog'ida belgilangan me'yorlar doirasida soliqqa tortiladigan baza hisobidan chegirib tashlanishi joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli qarori¹² O'zbekiston sug'urta bozorida keskin burilish yasadi. Ilk bor sug'urtalovchilarning eng kam miqdorlariga qat'iy talablar belgilandi. Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida nizom, sug'urta faoliyati klassifikatori tasdiqlandi. Sug'urta faoliyati bobidagi O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotdi, ayrimlariga sug'urta faoliyatini, jumladan majburiy sug'urta turlarini erkinlashtirish, sug'urta bozorida raqobatni shakllantirish borasida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Bu bosqichda bir qator sug'urta agentlari faoliyatini, sug'urtalovchilarning aktivlari va majburiyatlarini tartibga soluvchi, sug'urtalovchining rahbariga va bosh buxgalteriga bo'lgan malaka talablari me'yorlari, sug'urta tashkilotlari tomonidan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari borasidagi, sug'urtalovchilarning alohida sug'urta tavakkalchiliklari bo'yicha majburiyatlari, jami majburiyatlarning yo'l qo'yiladigan eng ko'p xajmi va to'lov qobiliyati me'yorlarini aniqlashni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy xujjatlar qayta ishlandi va yangilari qabul qilindi.

Davlat tomonidan sug'urta xizmatlari bozori rivojlanishga sharoit yaratuvchi xujjatlardan biri bulib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"gi qarori bo'ldi. Mazkur qaror bilan sug'urta bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan yuridik

¹²"Собрание законодательства Республики Узбекистан", – Т.: Министерство Юстиции Республики Узбекистан. 2002 г., № 22, ст.180. "Собрание постановлений Правительства Республики Узбекистан", – Т.: Министерство Юстиции Республики Узбекистан. 2002 г., № 11, ст. 72

shaxslar 2006 yil 1 apreldan boshlab uch yil muddatga daromad (foyda) solig'i va yagona soliq to'lovi to'lashdan ozod etildi.

Sug'urta xizmatlarining raqobat bozorini yanada shakllantirish, sug'urta faoliyatining zamonaviy turlarini rivojlantirish va sifatini oshirish, sug'urtalovchilarning kapitallashuv darajasini ko'paytirish, moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularning mintaqaviy tarmoqlarini kengaytirish, shuningdek sug'urtalashni tartibga solish usullarini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi PQ-618-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori¹³ bilan 2007 - 2010 yillarda O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini isloh qilish va rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Dasturda sug'urtalash, sug'urta faoliyati va sug'urta nazoratining qonunchilik va normativ-huquqiy bazasini xalqaro amaliyotga muvofiq yanada takomillashtirish, ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari, ayniqsa tadbirkorlik faoliyatini, import-eksport operatsiyalarini sug'urtalash, hayotni uzoq muddatga sug'urtalash, shu jumladan, sug'urtaning jamg'arma turlari sohasida sug'urta xizmatlari hajmini, ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish, respublika sug'urta bozorini xalqaro sug'urta bozorlariga integratsiyalash, sug'urta sohasi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar belgilandi.

Mazkur qaror bilan sug'urta bozorining professional qatnashchilari to'g'risidagi nizom tasdiqlandi va faoliyat ko'satayotgan sug'urta kompaniyalari (sug'urtalovchilar)ga ustav kapitali miqdorlariga bo'lgan talablar oshirildi.

Sug'urta bozori konyunkturasini o'rganish, uning yuqori darajada ochiq-oydinligini ta'minlash, raqobatni rivojlantirish, sug'urta xizmatlari hajmlarini ko'paytirish, ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab

¹³O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. 2007 yil 15-son, 158-modda.

chiqish, potentsial xorijiy investorlarga mablag'larni O'zbekiston Respublikasi sug'urta sohasiga investitsiyalashda ko'maklashish, respublika aholisi o'rtasida sug'urtalash masalalari bo'yicha faol tushuntirish ishlarini olib borish, sug'urtalash uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, sug'urta bozori professional qatnashchilari uchun professional etika normalarini ishlab chiqish masalalari faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lgan O'zbekiston sug'urta bozori professional qatnashchilari uyushmasi tashkil etildi¹⁴.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi PQ- 618-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan "Sug'urta agentlari to'g'risida"gi, "Sug'urta tashkilotlari tomonidan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida"gi nizomga xamda "Sug'urta faolyati to'g'risida"gi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi nizom xamda sug'urtalovchilar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi PQ-618-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2007-2010 yillarda O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini isloh qilish va rivojlantirish dasturiga muvofiq 2008 yil 21 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

Sug'urta faoliyatini yanada takomillashtirish, sug'urtalovchilarning kapitallashuvi va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning hududiy tarmoqlarini kengaytirish va sug'urta kompaniyalarining investitsion jarayonlardagi ishtirokini rag'batlantirishga qaratilgan muhim xujjat, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 21 maydagi PQ-872-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. 2007 yil 15-son, 158-modda.

yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi¹⁵. Mazkur qaror bilan sug'urtalovchilar ustav kapitalining eng kam miqdorlariga bo'lgan talablar oshirildi, sug'urtalovchilarga qimmatli qog'ozlar bozorida tegishli litsenziyasiz investitsion vositachi sifatida professional faoliyatni amalga oshirish huquqi berildi.

Prezidentimizning "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Davlat qo'mitasining birgalikdagi qarori bilan "Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarinibuzganligi uchun sug'urtalovchilarga jarimasanktsiyalarini qo'llash tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi.

Sug'urta faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 8 sentyabrdagi 202-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining sug'urta nazoratchilari xalqaro uyushmasiga kirishiga rozilik berildi. Bu o'z o'rnida sug'urta nazorati bobidagi xalqaro tajribalar Respublikamizga kirib kelishiga va sug'urta bozori rivojlanishiga o'ziga xos zamin yaratadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston sug'urta bozori sug'urta sohasidagi davlat siyosati tufayli rivojlanib, shakllangan va bugungi kunda sug'urta faoliyatini tartibga solish bo'yicha eng muhim va asosiy huquqiy baza yaratilgan. U sug'urta faoliyatining turli jihatlarini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni, shuningdek bir qator boshqa sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi qonunosti va me'yoriy-huquqiy xujjatlardan iboratdir.

¹⁵O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. 2008. 20-21 (312-313)-son. 25-26-betlar.

Bayon qilinganlarning hammasi sug'urta sohasi, ya'ni O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishi, shu jumladan sug'urtalash ishlari amaliyoti xususan sug'urta andarraytingi rivojlanishi uchun asos bo'lib, shart-sharoit yaratmoqda. Ohirgi yillar davomida aholining sug'urtaga bo'lgan munosabatlari tobora yaxshilanib, fuqarolarning sug'urtalovchilarga bo'lgan ishonchi ortib, sug'urta ishiga jiddiy yondoshilmoqda. Respublikamizdagi sug'urta kompaniyalari xodimlari professionalliklari ham sezilarli darajada oshdi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, milliy sug'urta bozori rivojlanishi Davlat miqyosida ijtimoiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralgan bo'lib, mavjud shart-sharoitlar, milliy sug'urta an'analari va madaniyati hisobga olingan xolda bosqichma-bosqich isloh etilgan va O'zbekiston sug'urta bozori sug'urta sohasidagi davlat siyosati, rahnamoligi va qo'llab-quvvatlanishi (soliq imtiyozlari berib borilishi, yangi sug'urta kompaniyalari tashkil etilishi va x.k.) tufayligina rivojlanib, shakllangan.

1.2. Milliy sug'urta bozori sig'iminining metodologik ahamiyati va uning makroiqtisodiy o'rni

Bozor iqtisodiyoti sharoitida insonlarga huquqiy jihatdan turli darajada erkinliklar beriladi va iqtisodiy yuksalish uchun sharoitlar vujudga keltiriladi. Bu o'z navbatida insonlarni uquvli, tadbirkor, tejamkor va o'z sohasining professional mutaxassisiga aylanishini talab etadi. O'zining uquvi va tashkilotchiligi natijasida tadbirkorlar kapitalga, mulkka, boylikka ega bo'la boshlaydilar. Xuddi shunday mulkdorlarni turli voqea va hodisalar tufayli ko'radigan zararlaridan kafolatlash uchun sug'urta bozorini mamlakatda rivojlantirish hayotiy zaruriyatga aylana boradi. Ma'lumki, har qanday bozorda sotuvchi va xaridor bo'ladi hamda ular o'rtasida tegishli tovarlar (xizmatlar) ayirboshlanadi. Xuddi shunday, sug'urta bozorida ham sotuvchi (sug'urtalovchi) va xaridor (potensial sug'urtalanuvchi) ishtirok etadi. Bu yerda potensial sug'urtalanuvchi tushunchasini qanday izohlash mumkin, degan o'rinli savol tug'ilishi mumkin. Gap shundaki, basharti, potensial

sug'urtalanuvchini to'g'ridan to'g'ri sug'urtalanuvchi, deb atasak katta xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz. Negaki, amaldagi qonunlarga muvofiq, sug'urta kompaniyalari bilan bevosita shartnoma tuzgan, fuqarolik salohiyatiga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urtalanuvchilar deyiladi. Aksincha, sug'urta mahsulotini sotib olishga ehtiyoji bor, ammo hali sug'urtalovchilar bilan tegishli sug'urta munosabatlariga kirishmagan shaxslar potensial sug'urtalanuvchilar deb ataladi.

Sug'urta bozori tushunchasi mamlakatimizdagi iqtisodchi olimlar tomonidan iqtisodiy adabiyotlarda va ularning ilmiy ishlardan ham yoritilib berilgan. Biroq sug'urta bozori sig'imi tushunchasi esa iqtisodiy adabiyotlar hamda iqtisodchi olimlar tomonidan tilga olinmagan. Sug'urta bozori sig'imi tushunchasiga turli tomondan turlicha qarash mumkin. Sug'urta bozori sig'imi tushunchasiga xorijiy adabiyotlar va internet saytlarida quyidagicha ta'rif berilgan: "Sug'urta bozori sig'imi – sug'urta kompaniyalari tomonidan joriy vaqtda yoki bir yil mobaynida sug'urta polislarini sug'urtalanuvchilarga sotish hajmi" deb keltirilgan. Biroq bizning nuqtai nazaramizda sug'urta bozori sig'imi yuqoridagi ta'rifga nisbatan boshqacharoq. Sug'urta bozori sig'imi – sug'urta kompaniyalarining joriy vaqtda mavjud bo'lgan aktivlariga bog'liq bo'lgan holda sug'urta kompaniyalari tomonidan maksimal darajada o'ziga risklar (javobgarlik) ni qabul qilish imkoniyati hisoblanadi. Yuqoridagi ta'riflardan shu narsani ko'rish mumkinki, sug'urta bozori sig'imi tushunchasiga ikki tomonlama qarash mumkin ekan. Birinchidan, sug'urta bozori sig'imi chet el adabiyotlari va saytlaridagi ta'rifga asosan tor doirada. Sababi, joriy vaqtda yoki bir yil mobaynida sug'urta polislarini sotilishi sug'urta kompaniyalari tomonidan potensial imkoniyatlar ishga solinmagan holda ta'rif berilgan. Bunday holatda esa biz sug'urta bozori sig'imi ni to'liq deb aytaolmaymiz. Agar biz sug'urta bozori sig'imiga 100 foiz deb qaraydigan bo'lsak, bu yerda u faqat taxminan 60-80 foiz atrofida bo'lishi mumkin. Bizning ta'rifga asosan esa sug'urta bozori sig'imi 100 foiz deb aytaolamiz. Chunki "sig'im" tushuncha biror narsaning maksimal qabul qilish imkoniyati. Shu sababli ham sug'urta kompaniyalari tomonidan maksimal

imkoniyatlarini ishga solyaptimi, demak bu sugurta bozori sig'imini vujudga keltiradi.

Butun bizning hayotimiz tasodifiy hodisalarga boy va bu hodisalar har doim ham totli bo'lavermaydi. Ko'pchilik hodisalar sog'liqqa, mol-mulkka, insoniyatning yashash turmushiga, korxonalarning moliyaviy holatiga zarar keltirishi yoki ko'zda tutilgan rejalarni o'zgartirib yuborishi mumkin. Bunday sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalar "qaltisliklar" nomi bilan bog'liq. Ko'zda tutilmagan qaltislikning sodir bo'lishi bilan, tabiiyki uning zararlarini qoplash va oldini olish zaruriyati yuzaga keladi. Busiz ishlab chiqarish jarayonlarini to'xtovsizligini ta'minlab, hayot uchun salbiy ta'sirini kamaytirib bo'lmaydi. Mamlakatimizda sug'urta tizimining rivojlanishi Prezident Islom Karimovning 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasidagi ma'ruzasida ta'kidlandiki: "Sug'urta mukofotlari miqdori bir yildavomida 45 foizga ortdi va 70 milliard so'mdan ziyodni tashkil etdi.

Ixtiyoriy shaxsiy sug'urtalash bo'yicha sug'urta xizmatlari barqaror suratlar bilan rivojlanib, 80 foizga ortdi, mulkni sug'urtalashning ixtiyoriy turlari esa 48 foizga o'sdi. Ayni paytda sug'urtalashning umumiy hajmida majburiy sug'urtalashni turli shakllarining ulushi nihoyatda past bo'lib, 6 foizdan ham ortmaydi. Buning sababi xalqaro amaliyot talablariga mos bo'lgan majburiy sug'urtalashning ayrim turlari bizda joriy etilmagani bilan izohlanadi. Shuning uchun ham "Transport vositalari egalarining javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi, "Ish beruvchining javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi qonunlarning ishlab chiqilishi va qabul qilinishini tezlashtirish zarur"¹⁶. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat sug'urta tizimini rivojlantirish uchun

¹I.A. Karimov. 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasidagi ma'ruza. / Halq so'zi - 2008 yil 9 fevral

butun imkoniyatlarni ishga soladi, sug'urta tizimining rivojlanishiga yordam beradigan huquqiy asoslarni yaratadi, sug'urta kompaniyalarini tashkil etish uchun moliyaviy manbalarni qidirib topishga, ushbu kompaniyalarni litsenziyalash bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishga ko'maklashadi.

Sug'urta tizimini rivojlantirish muhim ijtimoiy muammolarni yechishga xizmat qiladi. Sug'urta inson hayoti, ishlab chiqarish, ijtimoiy faoliyatning hamma sohalarini qamrab olib, shu bilan mamlakat iqtisodiyotida alohida o'rin egallab olishiga hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida katta zaruriyat mavjud.

Prezidentimizning 2002 yil 31 yanvardagi "Sug'urta bozorini yanadarivojlantirish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoniga binoan sug'urta kompaniyalari mulk shaklidan qat'iy nazar 3 yil muddatga daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod qilinganligi va shuning hisobidan hosil bo'lgan pul mablag'lari sug'urta kompaniyalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga, mintaqalarda agentlik tarmoqlarini rivojlantirishga, hamda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga sarflanishi kerakligi aniq belgilab qo'yilganligi diqqatga sazovor bo'ldi va ushbu o'tgan uch yil davomida O'zbekistondagi sug'urta kompaniyalari o'zlarini moddiy jihatdan anchagina tiklab olganliklarini O'zbekiston Respublikasi sug'urta tashkilotlarining yalpi nizom sarmoyasi 2007 yilning oxirida 21,8 mlrd. so'mni va 67,3 mln. AQSh dollarini tashkil etganligini, bu ko'rsatkich 2003 yilda 62,3 mln. AQSh dollaridan iborat bo'lganligida ko'rish mumkin.¹⁷ O'zbekiston Prezidentining yuqoridagi farmoni asosida 1997 yildagi "Tovarlar eksportini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha tadbirlari" to'g'risidagi farmoniga o'zgartirish kiritilib, 2002 yil 1 fevraldan boshlab xo'jalik sub'ektlari valyutaga eksport qilayotgan tovarlarni sotib oluvchining banki kafilligi yoki sug'urta polisi bo'lgan taqdirda oldindan to'lovlarsiz sotishga ruxsat berilgandan keyin eksport kontraktlarini siyosiy va tijorat risklaridan sug'urtalash turiga bo'lgan talab birmuncha oshdi. Bunday


¹⁷Moliya vazirligi qoshidagi sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi ma'lumoti

sug'urta turini eksportchilarimiz uchun "O'zbekinvest" kompaniyasi amalga oshirib kelmoqda.

O'zbekiston respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirilishi investitsion faoliyatni jadallashtirishga, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilishga, eksport salohiyatini kengaytirishga qaratilgan, hamda institutsional o'zgarishlarni nazarda tutadi. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, tadbirkorlik faoliyatini sug'urtalash sohasida olib borilayotgan tadbirlar bozor munosabatlari talablariga to'liq javob bera olmaydi, tadbirkorlar sug'urta sohasidagi bilimlarga e'tibor bermaydilar, ayrimlari sug'urta to'g'risidagi tushunchaga ham ega emas. Sug'urtalovchilar sug'urta shartnomasi shartlarini bajarishda jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'ymoqdalar, natijada sug'urtaga bo'lgan eskicha qarashlar saqlanib qolmoqda. Sug'urtalash faoliyatining asosiy qismi davlatning o'z qo'lidaligi sug'urta kompaniyalarining davlatga o'ta qaramligini keltirib chiqarmoqda. Fikrimizcha, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun davlat sug'urta kompaniyalari bilan bir qatorda, tadbirkorlarga turli sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi nodavlat sug'urta kompaniyalarini shakllantirish, sug'urta agentliklari va brokerlik tashkilotlari, hamda boshqa sug'urta sohasiga xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar faoliyatini rivojlantirish lozim.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tashkil etilayotgan nodavlat sug'urta kompaniyalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, sug'urta tizimi rivojlangan davlatlar (xususan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya) tajribalaridan foydalanishni yo'lga qo'yish ularning samarali faoliyat yuritishining muhim omili bo'ladi.

Sug'urta bozorining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rnini baholash uchun uning qaysi tizim tarkibida shakllanishiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Sug'urta moliya tizimining ajralmas bo'g'ini hisoblanadi. Moliyaviy tizimning institutlari va organlari tarkibi 1.2.1-rasmda keltirilgan.



1.1-rasm. Davlat moliyaviy tizimining tuzulmasi¹⁸

Moliyaviy tizimning har bir a'zosi takror ishlab chiqarish jarayonining turli bosqich va davrida o'z ta'sirini o'tkazadi. Davlatning tasarrufida bo'lgan pul fondlarining markazlashgan tizimini anglatuvchi "davlat moliyasi" mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda va ijtimoiy rivojlanishida kata ahamiyat kasb etadi. Davlat monetary siyosat, inflyatsiya darajasi, moliyaviy resurslarning iqtisodiyoti, hudud, shuningdek, mamlakat iqtisodiy, investitsion, ijtimoiy jarayonlarning parametrlariga o'z ta'sirini o'tkazadi.

¹⁸ S.V.Ermasov, N.B.Emasov "Страхование" Darslik. "Высшее образование" nashriyoti, 2008. 87-bet

Davlat monetary siyosat, inflyatsiya darajasi, moliyaviy resurslarning iqtisodiyoti, hudud, shuningdek, mamlakat iqtisodiy, investitsion, ijtimoiy jarayonlarning parametrlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu bilan bir qatorda, byudjetdan tashqari fondler orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy sug'urta aholining nogironlik, nafaqa, mehnatga layoqatliligi bilan bog'liq shaxsiy manfaatlarning himoyasini amalga oshiradi. Davlat krediti sug'urta tizimiga o'z ta'sirini, sug'urta tashkilotlaridan qarz olish yoki aksincha qarz berish bilan o'kazadi. Davlat, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligiga kafil bo'lib ham chiqishi mumkin.

Hozirgi kunda respublika sug'urta tizimida faoliyat ko'rsatayotgan turli mulkchilik shaklidagi sug'urta kompaniyalarining aktivlari ham turlichadir. Bu kompaniyalar ichida davlat sug'urta kompaniyalarining salmog'i kattadir. Davlat sug'urta kompaniyalarining aktivlari va sug'urta jamg'armalari boshqa faoliyat yurituvchi sug'urta kompaniyalaridan sezilarli darajada ustun. Bundan tashqari ularning ta'sis muassasalari davlat idoralari bo'lganligi uchun ularga bo'lgan ishonch o'z-o'zidan ancha yuqoridir. Hozirda respublikada 1 ta yirik davlat sug'urta kompaniyasi «O'zbekinvest» EIMSK, hamda davlat ulushiga ega bo'lgan «Kafolat» DASK, «O'zagrosug'urta» DASK va «Madad» SA sug'urta kompaniyalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu kompaniyalar Prezidentning tashabbusi va farmonlari, hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tashkil etilib, o'z mijozlariga sug'urta xizmatlarini taklif etib kelmoqdalar.

Sug'urta sohasi har qanday iqtisodiy tizimning takror ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksiz borishini ta'minlaydi hamda iqtisodiy rivojlanishga investitsiya qo'yilmalarining muhim manbai bo'lin xizmat qiladi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, sug'urta sohasining resurslari o'z hajmi jihatdan faqat bank resurslaridangina kam bo'lib, bir qator mamlakatlarda ular YaIM ning 13-15 foizini (1.2.1.-jadval) tashkil qiladi.

Sug'urta mukofotlarining davlatlar YaIM dagi ulishi¹⁹

Davlatlar	Yillar						
	2006 (% da)	2007 (% da)	2008 (% da)	2009 (% da)	2010 (% da)	2011 (% da)	2012 (% da)
AQSH	8.8	8.9	8.7	8	7.9	8.17	8.18
Kanada	7	7	7	7.4	7.3	6.79	6.74
Buyuk Britaniya	16.5	15.7	15.7	12.9	12.4	11.4	11.27
Fransiya	11	10.3	9.2	10.3	10.5	9.48	8.92
Rossiya	2.3	2.4	2.3	2.5	2.3	2.33	1.33
Yaponiya	10.5	9.6	9.8	9.9	10.1	10.74	11.44
Janubiy Korea	11.1	11.8	11.8	10.4	11.2	11.18	12.12
Hindiston	4.8	4.7	4.6	5.2	5.1	4.23	3.98
BAA	1.7	1.9	2	2.5	2.1	1.92	1.98
O'zbekiston	0.24	0.26	0.24	0.3	0.28	0.26	0.29
JAR	16	15.3	15.3	12.9	14.8	12.99	14.16
Marokash	2.9	3.4	2.9	2.8	2.8	2.86	2.95

Mamlakat iqtisodiyotida sug'urtaning o'rnini yig'iladigan sug'urta mukofotlarining YaIMga nisbati va sug'urta kompaniyalari investitsiyalarining YaIM ga nisbati bilan belgilanadi. O'zbekistonda sug'urta mukofotlarining yalpi ichki maxsulotdagi ulushi 2006-2012 yillarda barqaror saqlanib, o'rtacha 0.26 foizni tashkil etdi. Sug'urta bozori rivojlangan mamlakatlarda esa, bu ko'rsatkich 6-10 foizni tashkil qilgan.

Sug'urta mukofotlar tushumining qit'alar bo'yicha o'zgarish bosqichlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bunda 2008 yilgi jahon moliyaviy inqirozigacha bo'lgan

¹⁹ SwissRe tashkilotining SIGMA jurnali va Moliya vazirligi qoshidagi sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

davrda rivojlanish yaqqol ko'zga tashlanadi, inqirozdan keying davrda o'sish sur'atlari birmuncha pasaydi (1.1.-jadval). Osiyo qitasida jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarini kata yo'qotishlarga olib kelmadi. Bunday o'sish tendensiyasi O'zbekiston sug'urta bozori misolida ham ko'rishimiz mumkin, ayniqsa inqirozning ikkinchi yilida (2009 y.) sug'urta bozorida eng kata ko'rsatkich 166 % ga o'sish erishildi. Sug'urta mukofotining 2009 yilda katta sur'atlarda o'sishi majburiy sug'urtaning amaldagi turlari isloh qilinganligi hamda yangi turlari joriy etilganligi tufayli sug'urtaning majburiy turlari bo'yicha sug'urta mukofotlarining oshganligi bilan izohlanadi.

1.2.-jadval

Sug'urta mukofotlarining o'zgarish dinamikasi, (2006 yil ko'rsatkichlari shartli ravishda yuzga teng deb olingan, foizda)²⁰

Qit'alar	Yillar						
	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
Amerika	100	106,5	101,5	93,7	103,8	106,6	104,3
Evropa	100	118,5	96,6	95,1	100,4	102,5	94,4
Osiyo	100	108,5	115	107,8	114,5	109,4	105,3
Okeaniya	100	118,3	113	85,8	123,3	118,9	102,2
Afreka	100	105,2	99,4	94,1	116,1	109,1	103,8
Butun jahon boyicha o'rta hisobda	-	111,4	105,1	95,3	111,62	109,3	102
O'zbekiston	100	148	118,3	166	120	132	135

Milliy iqtisodiyot sohalariga tashqi va ichki investitsiyalar oqimini jadallashtirish iqtisodiy yuksalishning yangi bosqichini boshlab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Shuning uchun ham mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov "Vatanimizning kelajagi, uning jahon iqtisodiy aloqalari tizimidagi o'rni investitsiyalarga bog'liq bo'lib turibdi"²¹ - deb bejiz ta'kidlamagan edi. Shunga ko'ra iqtisodiyotni faol rivojlantirish keng miqyosdagi investitsiyalarni talab qiladi.

²⁰ SwissRe tashkilotining SIGMA jurnali va Moliya vazirligi qoshidagi sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

²¹I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent: O'zbekiston - 1999 - 65 b.

Sug'urta kompaniyalari investitsiya sohasida ikki yo'nalishda faoliyatolib boradilar, birinchisi investorlarga ular tomonidan investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'larni sug'urtaviy himoyalash bo'lsa, ikkinchidan o'zlarining investor sifatidagi faoliyatidan iboratdir. Shuning uchun ham sug'urta kompaniyalari investitsiya sohasining muhim unsurlaridan hisoblanadi.

Sug'urta kompaniyalarining investor sifatidagi faoliyatiga to'xtaladigan bo'lsak, ular ixtiyorida sug'urta shartnomasining amal qilishi mobaynida qo'shimcha daromad olish maqsadida investitsiyalash mumkin bo'lgan, vaqtinchalik majburiyatdan xoli bo'lgan ma'lum miqdordagi bo'sh mablag'lar to'planadi. Sug'urtalovchilar bu mablag'larni qo'shimcha daromad olish maqsadida turli ob'ektlarga investitsiya qilishlari mumkin. Sug'urta kompaniyalari investitsiya mablag'larini yuqori daromadli, ishonchli manbalarga joylashtirish orqali o'z mablag'larining quvvatlilikini oshirib, iqtisodiy salohiyatini kuchaytiradi.

O'zbekiston respublikasi Moliya vazirining 2006 yil 8 fevraldagi 10 sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan nizomga ko'ra sug'urta kompaniyasi o'z mablag'larini quyidagilarga yo'naltirishi mumkin:

- davlat qimmatli qog'ozlariga;
- korporativ obligatsiyalarga;
- aktsionerlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlariga;
- banklarning depozitlariga;
- ko'chmas mulklarga;
- sug'urta polislari bilan ta'minlangan zaymlarga;
- ulushdosh sifatida qatnashishga.

Ushbu sohalardan olingan daromadlar sug'urta kompaniyalarining sug'urta zahiralarini shakllantirish orqali xarajatlar qismini qoplash hamda foyda olish

manbai bo'lib xizmat qiladi, shu bilan birga inflyatsiya o'sishini kamaytirib, iqtisodiyotning barqarorlashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Sug'urta kompaniyalarining investitsion imkoniyatlarini quyidagi omillar belgilaydi:

1. Mijozlar soni va sug'urta mukofoti hajmiga bog'liq bo'lgan vaqtinchalik bo'sh mablag'lar miqdori.

2. Mablag'lardan foydalanish mumkin bo'lgan muddatlar. Sug'urta qiluvchilar tomonidan moliya resurslarining to'planishi sug'urtani faol investitsiya siyosati yo'li bilan iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omiliga aylantiradi. Sug'urta kompaniyalari tomonidan investitsiyaga yo'naltiriladigan mablag'larga quyidagilar kiradi:

- kompaniyalarning o'z mablag'lari;
- jalb qilingan mablag'lar;
- vaqtinchalik bo'sh bo'lgan mablag'lar;
- sug'urta zahiralar;
- boshqa mablag'lar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta kompaniyalari ham o'z mablag'larini foyda beradigan sohalarga yo'naltirib banklar bilan raqobatlashadigan tizim barpo qilganliklari tufayli Respublika moliya bozorining faol ishtirokchilariga aylanib bormoqda.

Dunyoning etakchi sug'urta kompaniyalari tajribalariga ko'ra, kompaniyalar investitsiya portfelining ko'chmas mulklarga va korxonalar ustav kapitallariga investitsiyalari 15 oiz, qimmatli qog'ozlarga investitsiyalari 25-60 foiz, tijorat banklari depozitlariga qo'ygan mablag'lari 1-12 foizdan oshmaydi.²²

Sug'urtalovchilar tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalar²³

mln. so'mda

Investitsiya qilinayotgan sohalar	2009	2010	2011	2012	O'sish 2012 yil 2009 yilga.nis %	2012 yil jami sohalarga nisbatan %
Bank depozitlari	42269,0	49296,4	61127,2	71199,2	195,8	21,53
Qimmatli qog'ozlar	94505,1	108119,0	113920,2	122206,1	140,5	36,95
Shu jumladan: DQMO	1565,8	2340,1	982,6	41,8	-96,7	0,01
Aktsiyalar	88665,8	100011,1	107527,6	117099,7	143,5	35,41
Bank va nodavlat obligatsiyalar sertifikati	4273,5	5767,8	5409,9	5064,6	122,4	1,53
Berilgan Kreditlar	-	132,9	634,8	605,6		0,18
Shu jumladan: Jismoniy shaxslarga	-	22,9	46,3	77,7		0,02
Yuridik shaxslarga	-	110,0	588,5	528,0		0,16
Ko'chmas mulkni sotib olinishi	108,4	9,6	935,3	419,4	403,7	0,13
Korxonalar nizom jamg'armasida qatnashish	1716,7	1915,5	1820,3	6661,8	830,5	2,01
Boshqa investitsiyalar	2563,2	4163,9	4026,2	6847,7	305,4	2,07
Jami investitsiyalar	235667,5	271756,3	296384,1	330733,6	2145,2	100

²² В.И. Рябикина. Страхование. М.: Экономист - 2006 – 117 с.

²³ Moliya vazirligi qoshidagi sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi ma'lumoti asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2008 yilga nisbatan 2012 yilda bank depozitlariga qo'yilgan investitsiyaning o'sishi 195,8 foizni tashkil etgan, aksiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalarning o'sish tezligi o'rtacha bo'lib 143,5 foizni tashkil etgan, davlat qisqa muddatli obligatsiyalariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi esakamaygan. Berilgan kreditlarda o'sish surati yuqori bo'lsada umumiy miqdorkichik hajmni tashkil etmoqda. Ko'chmas mulk sotib olishga yo'naltirilgan investitsiyalarning o'sish surati eng yuqori darajani tashkil etgan bo'lsada umumiy miqdor kichik hajmni tashkil etib kelmoqda (1.3 - jadval).

Jadvalni tahlil qilgan holda investitsiya faoliyati bo'yicha quyidagi xulosalarni bildiramiz:

1. Sug'urta kompaniyalari investitsiya portfelining ko'p qismini boshqa investitsiya ob'ektlariga nisbatan likvidligi yuqori bo'lganligi uchun tijorat banklariga qo'yilgan depozitlar tashkil etadi. Lekin, bugungi kunga kelib tijorat banklariga qo'yilayotgan depozit mablag'larining foizlari darajasi tushib ketdi. Shuning uchun investitsiya mablag'larini likvidli va yuqori daromad beradigan obligatsiyalarga joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

2. Malakatimizda moliya bozori to'laqonli yaratilmaganligi, ayniqsa qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori yaxshi rivojlanmaganligi sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatini cheklab qo'ymoqda. Ushbu bozorni rivojlantirish moliya bozorining rivojlanishiga va o'z o'rnida sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatining kengayishiga olib keladi.

3. Hozirgi kunda sug'urta kompaniyalari o'z mablag'larini to'g'ridan-to'g'ri qimmatli qog'ozlarga joylashtirish imkoniyatiga ega emas. Sug'urta kompaniyalariga dilerlar ishtirokisiz bevosita qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun shart-sharoit yaratish maqsadida qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi sifatidagi faoliyatini yo'lga qo'yish zarur (2008yilda "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunga kiritilgan o'zgartirish asosida buning huquqiy asosi yaratildi). Sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatini yanada kengaytirish

uchun respublikada hayot sug'urtasini rivojlantirishga e'tiborni qaratish kerak. Bu ko'rsatkichning salmog'i umumiy sug'urta xizmatlari salmog'ida juda past bo'lib, statistik ma'lumotlarga e'tibor qiladigan bo'lsak, 2008 yilda hayot sug'urtasi bo'yicha yig'ilgan sug'urta badallari miqdori umumiy badallar miqdoriga nisbatan 0,4 foizni tashkil etganligini, 2012 yilda esa bu ko'rsatkich 0,9 foizga etganligini ko'rish mumkin. Sug'urta faoliyati rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 65 foizgacha etayotganligini 30 yuqorida ko'rsatib o'tdik. Investitsiya uchun yo'naltiriladigan mablag'larning asosiy qismi aynan shu sug'urta turi mablag'laridan tashkil topishini e'tiborga oladigan bo'lsak, bu sug'urta turini rivojlantirish qanchalik zarur ekanligini anglash mumkin. Respublikada zamon talablari asosida sug'urta ishini olib borish bilimlariga va tajribasiga ega malakali xodimlarning etishmasligi zamonaviy sug'urta tizimining muvaffaqiyatli va jo'shqin rivojlanishiga xalal bermoqda. Sug'urta tizimida 10 mingga yaqin xodimlar band. Sug'urta kompaniyalari xodimlari malakasini oshirish maqsadida "O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasi tomonidan tashkil etilgan "Sug'urta olami" o'quv markazi yagona bo'lib, bu butun Respublika uchun etarli emas, bunday markazni oliy o'quv yurti qoshida tashkil qilish kerak.

Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida sug'urta yo'nalishi bo'yicha tayyorlab berilayotgan bakalavr va magistrnlarning ko'pchiligi oliy o'quv yurtini tamomlagach o'z mutaxassisliklari bo'yicha ishga yo'naltirilmayapti, natijada sug'urta kompaniyalarida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning aksariyat qismi boshqa soha vakillarini tashkil etmoqda.

I bob bo'yicha xulosalar

O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishi davlat miqyosida ijtimoiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralgan bo'lib, mavjud shart-sharoitlar, milliy sug'urta an'analari va madaniyati hisobga olingan xolda isloh etilgan va milliy sug'urta bozori tashkil topishi va shakllanishi sekin-astalik bilan tubdan o'zgarib borgan va bir nechta bosqichlarni bosib o'tgan.

Mamlakatimizda sug'urta sohasiga mustaqillikning dastlabki yillaridayoq e'tibor berildi. O'zbekiston mustaqil sug'urta bozori tashkil etish va rivojlantirish borasida olib borilgan iqtisodiy islohotlar sekin-astalik bilan bilan o'z samarasini bera boshladi. Dastlab 1993 yil 6 mayda "Sug'urta to'g'risida" qonun qabul qilin va bu sug'urta sohasining rivojlanishi uchun dastlabki qadam bo'ldi. Shunisi ahamiyatliki, mazkur qonunda davlat sug'urtasining monopoliyasiga barham berildi, ya'ni davlat sug'urta tashkilotlari va nodavlat sug'urta tashkilotlari uchun teng sharoitlar yaratildi. Hukumatimiz tomonidan sug'urta bozorining huquqiy asoslarini takomillashtirish va o'zgartirishlar kiritishda davom etmoqdaki bu mamlakatimizda sug'urta bozorini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Sug'urta tizimini rivojlantirish muhim ijtimoiy muammolarni yechishga xizmat qiladi. Sug'urta inson hayoti, ishlab chiqarish, ijtimoiy faoliyatning hamma sohalarini qamrab olib, shu bilan mamlakat iqtisodiyotida alohida o'rin egallab olishiga hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida katta zaruriyat mavjud. Sug'urta bozori unung makroiqtisodiy ahamiyati sug'urta bozori rivojlangan mamlakatlarda ham ko'rishimiz mumkin. Sug'urta bozori rivojlangan davlatlarda sug'urtaning YaIM hajmi 8-15 % gachani tashkil qilmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, sug'urta bozorini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim hioblanadi.

II-BOB. O'zbekistonda milliy sug'urta bozori va sig'ining rivojlanish tendensiyalari.

2.1. O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanish xususiyatlari va ko'rsatkichlari tahlili

Ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojida sug'urtaning o'rni katta bo'lib, bu mamlakatda milliy sug'urtaxizmatlari bozorini tashkil etishni ob'ektiv zarur qilib qo'yadi. Respublikamiz Mustaqillikka erishgandan keyin mustaqil sug'urta tizimi barpo etildi. 1992 yili qabul qilingan "Chet el investitsiyalarini kafolatlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining amal qilishi ham ko'p jihatdan mavjud sug'urta tizimining faoliyatiga bog'liq edi.

Mamlakatimizda sug'urta tizimining rivojlanishi Prezident Islom Karimovning 2005 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasidagi ma'ruzasida ta'kidlandiki: "so'ngi besh yilda sug'urtaxizmatlari hajmi 5 marta, lizing operatsiyalari deyarli 6 marta, auditorlik xizmati ko'rsatish pul bilan hisoblaganda taxminan 9 marta o'sgani tabiiyki, salmoqli natija sifatida baholashga arziydi"²⁴. Respublikamizda sug'urta sohasidagi bu ijobiy o'zgarishlar davlatimizning olib borayotgan odilona sug'urta siyosati natijasidir.

O'zbekiston sug'urta bozori Markaziy Osiyoda tezkor sur'atlar bilan rivojlanayotgan bozorlardan biri hisoblanadi. Sug'urta bozori bir necha yillardan beri barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'lib kelmoqda, bu esa o'z navbatida uning mamlakat iqtisodiyotidagi rolini oshirib bormoqda. O'zbekistonning hozirgi zamon iqtisodiyotida sug'urta tizimi strategic ahamiyat kasb etmoqda, buning boisi sug'urta tizimining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi, sug'urta bozorining

²⁴I.A.Karimov.Erishilgan natijalarni mustahkamlab, yangi marralar sari harakat qilamiz. / Xalq so'zi – 13 fevral 2006 yil

davlat boshqaruvi organlari tomonidan mamlakatning bozor infratuzilmasining ajralmas qismlaridan biri sifatida ko'rib chiqilyotganligidir.

Sug'urta tizimida sug'urta bozori alohida o'rin egallab, shu erda sug'urtaxizmatlariga bo'lgan talab va taklif paydo bo'ladi. Sug'urta bozorini rivojlantirishdan davlat manfaatdor hisoblanadi, chunki sug'urta davlatning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan aholining moddiy farovonligini o'stirish va ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashgaxizmat qiladi. O'zbekiston sug'urta bozori keyingi yillarda birmuncha tez rivojlanmoqda. Buni chet el investorlarining milliy sug'urta bozorimizga qiziqishi ortayotganligida ham ko'rish mumkin. Buning sabablaridan biri sifatida shuni aytish kerakki, sug'urta sohasidagi qonunchilik bazasi keyingi yillarda sezilarli darajada mustahkamlandi va takomillashdi.

2013 yil 1 iyun holatiga O'zbekiston sug'urta bozorida 35 ta sug'urta kompaniyasi mavjud bo'lib, ulardan 33 tasi umumiy sug'urta sohasida (Non-Life Insurance), ikkitasi hayot sug'urta sohasida (Life Insurance) faoliyat yuritmoqda.

2.1-jadval

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalari soni va ularning tashkiliy-huquqiy shakli dinamikasi²⁵

Yillar	Jami sug'urta kompaniyalari	Milliy (davlat) Kompaniyalari	Aksiyonerlik jamiyatlari	Ma'suliyati cheklangan jamiyatlar	Shuba korxonal ar
2007	27	1	10	14	2
2008	31	1	10	18	2
2009	32	1	10	19	2
2010	33	1	10	20	2
2011	37	1	10	24	2
2012	33	1	10	20	2
2013	35	1	10	20	2

²⁵O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining www.mf.uz –internet sahifasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Mavjud kompaniyalarning tashkiliy huquqiy-shakli va miqdoran oxirgi besh yil ichidagi o'zgarishi masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, bugungi kundagi sug'urta kompaniyalarni ko'p qismi MChJ shaklida tashkil etilganligi va sug'urta kompaniyalari miqdori oxirgi besh yil ichida ortganini 2.1.-jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

Milliy sug'urta bozorini qayta tashkil qilishga tizimli yondoshuv tufayli bozor bir tekisda va tez rivojlanmoqda, sug'urtaxizmatlari hajmi oshishi natijasida sug'urtachilarning mamlakat iqtisodiyotidagi roli oshib bormoqda. Aholining sug'urtaga bo'lgan munosabati asta-sekin o'zgarmoque, ularning sug'urtalovchilarga bo'lgan ishonchi ortmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz sug'urta bozorida 2013 yil 1 yanvar holatiga yuridik maqomga ega bo'lgan sug'urta agentlari soni 1977 taga yetgan bo'lsa, jismoniy maqomga ega bo'lgan sug'urta agentlari soni 5659 donaga yetdi.

2. 2.-jadval

**O'zbekiston sug'urta bozorining professional ishtirokchilari
dinamikasi²⁶**

Sug'urta bozori ishtirokchilari	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil
-sug'urtalovchilar	31	32	33	37	33
-sug'urta brokerlari	3	3	3	3	3
-assistans kompaniyalari	4	4	4	5	5
-yuridik maqomga ega sug'urta agentlari	975	1250	1576	1620	1977
-jismoniy shaxs bo'lgan sug'urta agentlari	2800	3034	4280	4751	5659
-adjuster va syurveyer xizmati ko'rsatuvchilari	4	4	4	4	4
-aktuar kompaniyalar	1	1	1	2	2

²⁶O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining www.mf.uz –internet sahifasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2.1-rasm. 2008-2012 yillarda mintaqaviy sug'urta xizmatlari bozori subyektlarining o'zgarish dinamikasi²⁷




Diagrama ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2012 yilda har bir sug'urta kompaniyasiga o'rtacha 31 tadan mintaqaviy bo'linma to'g'ri kelgan. 2009 yilda bu ko'rsatkich 25 tani tashkil etgan. Ya'ni, tahlil etilayotgan yillarda har bir sug'urta kompaniyasiga to'g'ri keladigan o'rtacha mintaqaviy bo'linmalar sonida ijobiy o'zgarish yuz bergan.

Agar, mamlakatimizning barcha mintaqalarida mavjud 35 ta sug'urta kompaniyasidan 9 tasi o'z filiallariga ega bo'lsa, har bir sug'urta kompaniyasiga to'g'ri keladigan mintaqaviy bo'linmalar soni ancha yuqori bo'lishi oydinlashadi.


Shunisi diqqatga sazovorki, 2008 yilda O'zbekiston sug'urta bozori bo'yicha to'plangan yalpi sug'urta mukofotlari tarkibida Toshkent shahrining ulushi 80 foizdan yuqori bo'lgan (2.4-jadval). Ammo yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, sug'urta bozorini rivojlantirish yuzasidan qabul qilingan davlat dasturlari asosida so'ngi 5 yil davomida mintaqaviy sug'urta xizmatlari bozorini

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

rivojlantirish, respublika mintaqalarida sug'urta kompaniyalarining keng tarmoqlangan bo'limlarini tashkil etish yuzasidan e'tiborga molik ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida, 2010 yilga kelib O'zbekiston bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari tarkibida mintaqalarning ulushi sezilarli darajada oshdi. Bu haqda quyidagi diagrammada ma'lumotlar keltirilgan(2.2.-rasm).

2008 yilda O'zbekiston sug'urta bozori bo'yicha to'plangan yalpi sug'urta mukofotlari tarkibida mintaqalarning ulushi 30 foizni tashkil etgan. Agar buni raqamlarda ifodalaydigan bo'lsak, tahlil etilayotgan davrda yalpi sug'urta mukofotlari hajmi 49,7 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning 14,9 mlrd.so'mi mamlakat hududlariga to'g'ri kelgan. 2009 yilda jami sug'urta mukofotlari tarkibida mintaqalarning ulushi 42,3 foizni yoki 61,8 mlrd.so'mga teng bo'lgan. Ammo, diagrammada keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2010 yilda mintaqalarning sug'urta mukofotlarini to'plash bo'yicha faolligi 2009 yilga nisbatan biroz pasaygan.

Ya'ni, 2010 yilda mintaqaviy sug'urta bozorlarida to'plangan sug'urta mukofotlari hajmi yalpi sug'urta mukofotlarining 40 foizini tashkil etgan.



2.2-rasm. 2008-2012 yillarda O'zbekiston sug'urta bozori bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari tarkibida mintaqalarning ulushi²⁸

Agar 2012 yilda O'zbekiston sug'urta bozori bo'yicha to'plangan sug'urta mukofotlari miqdori 175,0 mlrd.so'mga teng bo'lgan bo'lsa, uning 40 foizi, ya'ni 70,0 mlrd.so'mi sug'urta kompaniyalarining mintaqaviy bo'linmalari (Toshkent shahridan tashqari) hissasiga to'g'ri kelgan.

Yuqorida qayd etganimizdek, 2012 yilda respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalarining mintaqaviy bo'linmalari soni 892 taga etdi. Agar ularni hududlar kesimida tahlil etadigan bo'lsak, umumiy holat quyidagi ko'rinishni oladi (2.1.4 - jadvalga qarang). Jadval ma'lumotlaridan ma'lumki, sug'urta kompaniyalarining mintaqaviy bo'linmalari soni jihatidan Toshkent shahri, Farg'ona, Toshkent, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari respublikamizda etakchilik qilmoqda. Ushbu mintaqalarda mavjud sug'urta bo'linmalari soni 375 tani yoki mintaqaviy bo'linmalar jami sonining 42 foizini tashkil etgan. Sug'urta kompaniyalarining mintaqaviy bo'linmalari soni bo'yicha oxirgi beshtalik tarkibiga Namangan, Xorazm, Navoiy, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarini kiritish mumkin.

2.3 - jadval

2006-2010 yillarda O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha sug'urtalovchilar bo'linmalarining taqsimlanish dinamikasi²⁹

Respublika hududlari	2008	2009	2010	2011	2012
Toshkent shahri	37	47	77	76	78
Toshkent viloyati	36	35	63	69	75
Farg'ona viloyati	38	41	61	71	78
Samarqand viloyati	37	41	56	66	74
Andijon viloyati	36	40	52	63	69
Qoraqalpog'iston Respublikasi	30	37	48	63	66
Buxoro viloyati	30	33	48	61	65
Qashqadaryo viloyati	29	31	47	64	70
Surxondaryo viloyati	31	37	47	57	58
Namangan viloyati	27	26	44	54	57
Xorazm viloyati	20	25	38	47	48
Navoiy viloyati	24	28	37	42	44
Jizzax viloyati	18	23	36	43	46
Sirdaryo viloyati	17	21	35	41	45
Jami:	410	465	689	817	892

²⁹ Jadval O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi..

Ushbu viloyatlarda faoliyat ko'rsatayotgan jami sug'urta kompaniyalari bo'linmalari soni 240 tani yoki umumiy miqdorning 26,9 foizini tashkil etadi.

Jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatib turibdiki, tahlil etilayotgan yillarda O'zbekiston sug'urta bozori bo'yicha to'plangan sug'urta mukofotlari hajmi yuksak sur'atlar bilan rivojlangan. 2008 yilda respublika sug'urta bozori

2.4 - jadval

**O'zbekiston sug'urta bozori bo'yicha to'plangan jami sug'urta mukofotlari
tarkibida mintaqalarning ulushi³⁰**

(mln.so'm)

Hududlar	2008	2009	2010	2011	2012
Toshkent shahri	33757,7	50441,4	57656,8	84299,7	104400,0
Toshkent viloyati	2444,7	3165,2	4526,6	8327,7	10509,6
Andijon viloyati	1645,3	2501,0	3645,9	7889,4	7511,8
Farg'ona viloyati	1692,5	2520,9	3548,2	7451,1	8143,2
Samarqand viloyati	1344,3	2009,0	2931,0	7158,9	6820,8
Buxoro viloyati	1739,0	3189,7	2576,0	6574,5	6542,4
Qashqadaryo viloyati	1201,9	1648,6	2301,0	3798,6	6751,2
Surxondaryo viloyati	1068,6	1723,9	2153,0	3506,4	3897,6
Namangan viloyati	1121,3	1416,0	1978,3	4236,9	4872,0
Navoiy viloyati	884,5	1241,7	1632,2	2629,8	3271,2
Xorazm viloyati	790,1	1070,2	1552,5	3214,2	3480,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	783,6	1119,6	1423,2	2775,9	4036,8
Sirdaryo viloyati	782,1	845,1	1087,0	2191,5	2157,6
Jizzax viloyati	447,0	681,2	1003,4	2045,4	1531,2
Jami	49 702,6	73 573,5	88 015,1	146100,0	173925,4

³⁰Jadval O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi..

bo'yicha jami 49702,6 mln.so'm sug'urta mukofotlari to'plashga erishilgan bo'lsa, 2012 yil yakunlari bo'yicha bu ko'rsatkich 173925,4 mln.so'mga yoki 3,5 martaga oshgan. Bu o'z navbatida respublika mintaqaviy sug'urta xizmatlari bozorida ham sug'urta mukofotlari tushumi ko'payganligidan dalolat beradi.

Agar jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni respublika hududlari miqyosida tahlil etadigan bo'lsak, Toshkent shahri bu borada tengi yo'q etakchi ekanligi ma'lum bo'ladi. Masalan, 2008 yilda O'zbekiston sug'urta bozori bo'yicha to'plangan sug'urta mukofotlarining 33757,7 mlrd.so'mi yoki 67,0 foizi Toshkent shahrida joylashgan sug'urta kompaniyalari va ularning bo'linmalari hissasiga to'g'ri keladi.

Bu tendensiya tahlil etilayotgan 2009-2012 yillarda ham kuzatilgan. Mamlakat sug'urta bozorida Toshkent shahrining muhim va salmoqli o'rin tutishini bir qator omillar bilan tushuntirish mumkin.

Birinchidan, Toshkent shahrida biznes muhit, ishlab chiqarish va savdo operatsiyalari, transport va qurilish-montaj ishlari respublikamizning boshqa hududlariga qaraganda kuchli rivojlangan. Ikkinchidan, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta kompaniyalarining bosh ofislari Toshkent shahrida joylashgan. Tabiiyki, bu holat misol uchun, "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi, "O'zbekiston temir yo'llari" davlat aksiyadorlik temir yo'l kompaniyasi kabi mijozlar bilan yirik miqdordagi sug'urta shartnomalarini tuzishga asos bo'ladi.

Tan olish lozimki, respublikamiz mintaqalarida faol sug'urta xizmatlarini ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalari tarkibiga "O'zagrosug'urta", "O'zbekinvest" va "Kafolat" sug'urta kompaniyalarini kiritish mumkin. SHuni e'tiborga olgan holda mazkur kompaniyalarning mintaqaviy faoliyatiga to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Bugungi kunda "O'zagrosug'urta" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi yuridik va jismoniy shaxslarning barcha toifasiga sug'urta xizmatlarining barcha

turlarini ko'rsatuvchi universal sug'urta kompaniyasi hisoblanadi. Kompaniya respublikamizning barcha xududlarini keng miqyosda qamrab olgan filial va agentlik shaxobchalariga ega. 2013 yilning 1 aprel holatiga ushbu sug'urtalovchining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 14 ta direksiyalari, 186 ta shahar va tumanlarda bo'limlari va 570 ta sug'urta vakolatxonalari mavjud³¹. Bu jihatdan hozirgi kunda "O'zagrosug'urta" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasiga teng kela oladigan sug'urta tashkilotini uchratish qiyin. Shuningdek, chekka qishloq joylarda istiqomat qiluvchi aholiga sug'urta xizmatlarini ko'rsatish maqsadida kompaniyaning 570 ta agentlik shaxobchalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizning barcha mintaqalarida "O'zagrosug'urta" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi bo'linmalarining mavjudligi joylarda yuqori sifatli sug'urta xizmatlarini ko'rsatish bilan bir qatorda sug'urta qildiruvchilarning sug'urta qoplamalarini olish bo'yicha talablarini tezkorlik bilan ko'rib chiqish va tartibga solish imkoniyatini yaratadi.

Respublikaning barcha mintaqalarida keng miqyosda sug'urta xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha bo'linmalarining mavjudligi so'ngi yillarda "O'zagrosug'urta" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasining bir qator ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekiston sug'urta bozorida etakchi o'ringa chiqib olishlari uchun shart-sharoit yaratdi. Ko'rinib turibdiki, respublikamiz sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan va sug'urta mukofotlarini to'plash bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan 15 ta sug'urta tashkiloti orasida "O'zagrosug'urta" davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi oldingi o'rinni egallab turibdi. 2012 yil yakunlari bo'yicha ushbu sug'urta tashkiloti jami 46178,0 mln.so'm miqdorida sug'urta mukofotlari to'plashga erishgan. Bu O'zbekiston sug'urta bozorining 21 ta sug'urtalovchisi tomonidan yig'ilgan yalpi sug'urta mukofotlarining 19,9 foizi demakdir.

³¹ www.agros.uz


Tahlil natijalariga asoslanib shunday xulosa chiqarish mumkinki, “O‘zagrosug‘urta” davlat-aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasining bunday salmoqli natijalarga erishishiga sababchi bo‘lgan eng muhim omillardan biri, yuqorida qayd etganimizdek, uning mamlakatimiz bo‘ylab katta miqdorda mintaqaviy tarmoqlarga egaligidir.

Respublika sug‘urta bozorida tuzilmaviy siyosatning asosiy jihat ixtiyoriy va majburiy sug‘urta turlari o‘rtasidagi nisbatni maqbullashtirishdani boratdir. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonini boshidan kechirayotgan mamlakatlarning tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bozor munosabatlarining tiklanishi va sug‘urta madaniyati rivojining past darajasi sharoitida majburiy sug‘urta turlarini amalga oshirish muqarrardir, bunday sharoitda majburiy sug‘urta turlarini amalga oshirish bozor kapitalizatsiyasini tezlashtirishga xizmat qiladi. Ammo mamlakatimizda mavjud majburiy sug‘urta turlari ham talab darajasida to‘liq bajarilmay kelmoqda. Masalan transport egalarining javobgarligi sug‘urtasi majburiy sug‘urta turi bo‘lgani holda ushb usug‘urta turi bo‘yicha potentsial sug‘urtalanuvchilarning sug‘urtaga tortilishi ellik foizga ham etmaydi. Chunki majburiy sug‘urta turining amal qilishini ta‘minlovchi vositalar etishmaydi. Sug‘urta mukofotlari taqsimotining tahlili mahalliy sug‘urtachilarning sug‘urta portfelida sug‘urtaning asosiy turi ixtiyoriy sug‘urta turlari ekanligidir, bu ko‘rsatkichning yana o‘shish istiqbollari kuzatilmoqda.

Shaxsiy sug‘urta tarkibi 22,3 foiz ixtiyoriy tibbiy sug‘urta, 75,2 foiz baxtsiz hodisalar va kasallikdan sug‘urta turlari va 2,5 foiz hayot sug‘urtasidan iboratdir. Javobgarlik sug‘urtasi tarkibida asosiy ulushni transport egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligi sug‘urtasi egallab, ushbu sug‘urtaning ulushi 86,2 foizni tashkil etgan, zayomchining javobgarligi sug‘urtasi 6,5 foizva professional javobgarliklar sug‘urtasi hissasiga jami javobgarlik sug‘urtasi mukofotlarining 7,3 foizi to‘g‘ri kelgan.



Mamlakatlar iqtisodiyotida sug‘urtaning o‘rni yig‘iladigan sug‘urta badallarining YaIMga nisbati va sug‘urta kompaniyalari investitsiyalarining

YaIMga nisbati bilan belgilanadi. O'zbekistonda sug'urta mukofotlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi salmog'i juda kichik hajmni tashkil etib kelmoqda.



2.3-rasm. 2011-2013 yillarda O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta mukofotining o'zgarish dinamikasi (TOP 25) mlrd.so'm³²


Milliy sug'urta bozorida sug'urta mukofotlarini to'plash bo'yicha so'ngi uch yilda o'sishni ko'rishimiz mumkin. 2011 yilda sug'urta bozorida 165,5 mlrd.so'm sug'urta mukofot yig'ilgan. 2012 yilga kelib bu ko'rsatkich 232 mlrd.so'mga yetgan, ya'ni 2011 yilga nisbatan 140,1 % sug'urta mukofoti yig'ilgan. 2013 yilda respublika sug'urta bozorida o'sish 2012 yilga nisbatan 122 %ga, ya'ni 51,7 mlrd.so'm mukofot ko'p yig'ilgan.



2.4-2.5-rasm. 2011-2013 yillarda O'zbekiston sug'urta bozorida ixtiyoriy va majburiy sug'urta mukofotining o'zgarish dinamikasi (TOP 25) mlrd.so'm va %da³³

³² SAIPRO axborot-reyting agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Sug'urta bozorida ixtiyoriy va majburiy sug'urta turlari bo'yicha sug'urta mukofotlarining hajmi yildan-yilga o'sib borayotganligini ko'rish mumkin(2.4-rasm). So'ngi uch yil davomida ixtoyoriy sug'urtadan tushadigan sug'urta mukofotlari o'sish dinamikasi keskin ko'rinishga ega. 2011 yilda 111,7 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilga kelib bu ko'rsatkich 192,1 mlrd.so'mga yetgan. Bundan ko'rinib turibdiki sug'urta xizmatlariga bo'lgan ixtiyoriy talab yildan-yilga oshib borishi kuzatilmoqda. Majburiy sug'urta turi bo'yicha ham sug'urta mukofotlari 2011 yilda 53,8 mlrd.so'm bo'lgan bo'lsa, 2013 yilda 91,6 mlrd.so'mni tashkil qilgan. Ushbu sug'urta turlari bo'yicha sug'urta mukofotlarini foiz bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 2011 yilda sug'urta mukofotlari tarkibida ixtiyoriy sug'urtaning ulushi 67,5%ni majburiy sug'urtaning ulushi esa 32,5%ni tashkil etgan. 2013 yilda mos ravishda 67,7% va 32,3%ni tashkilqilgan. Bundan ko'rinib turibdiki ixtiyoriy sug'urtaning ulushi yil sayin o'sib bormoqda.




2.6-rasm. 2011-2013 yillarda O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta to'lovlarining o'zgarish dinamikasi (TOP 25)³⁴

Milliy sug'urta bozorida sug'urta mukofotlari singari sug'urta to'lovlari ham o'sish dinamikasiga ega bo'lib bormoqda. 2011 yilda sug'urta 23,5 mlrd.so'm

³³ SAIPRO axborot-reyting agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

³⁴ SAIPRO axborot-reyting agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

bo'lgan bo'lsa, 2012 yilga kelib bu ko'rsatchik 40,0 mlrd.so'mni tashkil qilgan. 2013 yilda esa 60,4 mlrd.so'mni tashkil etgan.




2.7-2.8-rasm. 2011-2013 yillarda O'zbekiston sug'urta bozorida ixtiyoriy va majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta to'lovlarining o'zgarish dinamikasi (TOP 25) mlrd.so'm va %da³⁵

O'zbekiston sug'urta bozorida ixtiyoriy va majburiy sug'urta turlari bo'yicha sug'urta to'lovlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2011 yilda ixtiyoriy sug'urta to'lovlari jami(23,5mlrd.so'm) sug'urta to'lovlarining 13.2 mlrd.so'mini tashkil qilgan va ulush 56,4% ni tashkil qilgan. So'ngi uch yilda ixtiyoriy sug'urta to'lovlarining sug'urta to'lovlaridagi ulushi oshib borganligini ko'rishimiz mumkin. Aksincha majburiy sug'urta to'lovlari esa ixtiyoriy sug'urta to'lovlariga nisbatan ulushi kamayish tenditsiyasiga ega bo'lib kelmoqda. 2011 yilda majburiy sug'urtaning ulushi 43,6% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2013 yilga kelib bu ko'rsatkich 28,4%ni tashkil qilgan.

³⁵ SAIPRO axborot-reyting agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Bizga ma'lumki bugungi kunda respublikamizda majburiy sug'urta turlari bo'lib, transport egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish va ish beruvchilarni fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish hisoblaniladi. Mana shu turlardan tushayotgan sug'urta mukofotlari o'sib bormoqda. Ixtiyoriy sug'urtalari ham o'sish ko'rsatkichiga ega bo'lib, bozori sig'imini kengaytirmoqda.

2.9-2.10-rasm. 2013 yilda O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta mukofotlarining sug'urta turlari bo'yicha o'zgarish dinamikasi %da³⁶



Sug'urta bozori qatnashchilari 2013 yil natijalariga ko'ra, sug'urta mukofotlari bo'yicha ilk uchtalikni «O'zagrosugurta» DASK (AJ) (21,5%), «Uzbekinvest» EIMSK (15,23%) va «Asia Insurance» SK (12,26%) egallab turibdi. Bozorda to'rtinchi va beshinchi o'rinlarda «Kafolat» DASK (AJ) (10,34%) va «Alskom» SK (6,72%), yig'ilgan sug'urta mukofotlari bo'yicha etakchilar o'ntaligini esa «Xalq sug'urta» SK (2,36%) yakunlamoqda. Quyidagi

³⁶ SAIPRO axborot-reyting agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

jadval asosida 2013 yil yakunlari bo'yicha sug'urta kompaniyalari reytingini ko'rib chiqamiz (2.1.5-jadval).

2.5-jadval

2013 yil yakunlari bo'yicha sug'urta kompaniyalar reytingi³⁷

№	Sug'urta mukofotlari bo'yicha		Sug'urta tovonlari bo'yicha		Sug'urta shartnomalari soni bo'yicha	
	Kompaniyalar	ulush %	Kompaniyalar	ulush %	Kompaniyalar	ulush %
1	O'zagrosugurta	21,5	Uzbekinvest	43,67	O'zagrosug'urta	66,58
2	Uzbekinvest	15,23	O'zagrosugurta	13,79	Kafolat	9,71
3	Asia Insurance	12,26	O'zbekinvest Hayot	9,71	Alskom	4,97
4	Kafolat	10,34	Kafolat	9,61	Temir yo'l sug'urta	4,68
5	Alskom	6,72	Kapital Sugurta	5,26	Gross Insurance	3,65
6	Kapital Sugurta	5,52	Transinsurance Plus	3,95	kapital sug'urta	2,88
7	Temir yo'l sug'urta	4,46	Asia Insurance	3,37	uzbekinvest	2,15
8	Transinsurance Plus	4,13	Alskom	2,11	asia insurance	2,07
9	O'zbekinvest Hayot	3,8	Agro Invest Sugurta	1,83	Ishonch	1,17
10	Xalq sug'urta	2,36	Temir yo'l sug'urta	1,58	Xalq sug'urta	0,51
11	Sug'urta uz	1,97	Xalq sug'urta	1,52	Euroasia insurance	0,45
12	Gross Insurance	1,57	Ishonch	1,34	traninsurance plus	0,23
13	Ishonch	1,48	DD General Insurance	0,5	Madad	0,19
14	Euroasia insurance	1,33	Hamkor Sugurta	0,37	Agro Invest Sug'urta	0,16
15	Agro Invest Sugurta	1,33	Sug'urta uz	0,35	O'zbekinvest Hayot	0,15
16	Kafil sug'urta	0,90	Silk Road Insurance	0,58	Global Insurance	0,11
17	DD General Insurance	0,84	Euroasia insurance	0,27	DD General Insurance	0,1
18	Silk Road Insurance	0,80	Global Insurance	0,19	Hamkor Sug'urta	0,1
19	Hamkor Sugurta	0,74	Gross Insurance	0,18	Kafil sug'urta	0,07
20	Asko Vostok	0,69	Kafil sug'urta	0,11	Silk Road Insurance	0,06
21	Global Insurance	0,60	Madad	0,01	Agro Vostok	0,02
22	Madad	0,45	Asko Vostok	0,02	Sug'urta uz	0,004

Shuni ta'kidlash joizki, sug'urtalashning ixtiyoriy turlari ichida sug'urta mukofotlari bo'yicha kompaniyalar reytingida biroz o'zgarishlar kuzatilmoqda,

³⁷ SAIPRO axborot-reyting agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

lekin ilk o'ntalik etakchilari tarkibi bir xilligicha qolmoqda. Sug'urta to'lovlari bo'yicha etakchilar tarkibi ham bir xil bo'lib qolmoqda, lekin ayrim kompaniyalarning joylashuvlari o'zgargan. «Uzbekinvest» EIMSK sug'urta to'lovlari umumiy hajmida eng yuqori ulush – 43,67% ga egalik qilib, bozorda birinchi o'rinda turibdi. Avval ilk beshtalikda beshinchi o'rinni egallab turgan «ALskom» SK sakkizinchi o'ringa tushib ketgan, natijada «O'zbekinvest Hayot» SK uchunchi o'ringa ko'tarilib olgan. 2013 yil yakunlariga ko'ra sug'urta to'lovlari hajmi bo'yicha ilk o'ntalikni «Temir Yo'l Sug'urta» SK yakunlamoqda.

Sug'urta majburiyatlari reytingida hamon «O'zagrosug'urta» DASK (AOJ) bo'lib turibdi, keying o'rinlarda, «Kafolat» va «ALskom» peshqadamlik qilmoqda. Etakchi kompaniyaning umumiy majburiyatlardagi ulushi 66,58% ga etgan. 2013 yil yakunlariga ko'ra ilk o'nta etakchi kompaniya ruyxatidan «Gross Insurance» va «Kapital Sug'urta» joy olgan bo'lib, ular «Uzbekinvest» EIMSK va «Ishonch» kompaniyalaridan oldingi o'rinlarni egallagan.

Ilk uchta kompaniyaning sug'urta mukofotlari hajmi bo'yicha bozor konsentratsiyasi darajasi 48,99% ni tashkil qilmoqda. Ilk o'nta kompaniyaning ulushi 2012 yilga nisbatan 1,88 foizga kamaygan va 87,32%ni tashkil qilgan. Sug'urta to'lovlari bo'yicha bozor konsentratsiyasi darajasi sug'urta mukofotlariga ko'ra yuqoriroq. Ilk o'ntalik ulushiga 94,88% sug'urta to'lovlari to'g'ri kelmoqda. Ilk uchta 67,17% ulushga ega.


2.2. Sug'urta bozori sig'iminin klaster (omilli) tahlili

Sug'urta bozorini rivojlantirishdagi muhim masalalardan biri uni mamlakat iqtisodiyotidagi makroiqtisodiy o'rnini yuksaltirish va shu asnoda milliy sug'urta bozorini boshqa sug'urta bozori rivojlangan mamlakatlar bozori bilan raqobatlashaoladigan bozor infrastrukturasini yaratish orqali yuridik va jismoniy shaxslarning sug'urta xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish hisoblaniladi. Shuningdek tobora rivojlanib borayotgan raqobat muhiti sharoitida sug'urtalovchilarning sug'urta bozoridagi faolligini (aktivligi) oshirishni talab qilmoqda. Shu kabi ishlarni tashkil qilinishi, bu bevosita sug'urta bozori sig'imi

kengaytirish uchun xizmat qiladi. Sug'urta sig'imini kengaytirish bu qator sub'ektiv va ob'ektiv omillarga bog'liq. Shu sababli ham bu omillarni tahlil qilish dissertatsiya ishining mazmun mohiyatini ochib beradi.

Sug'urta bozori sig'imi – sug'urta kompaniyalari tomonidan joriy vaqtda yoki bir yil mobaynida sug'urta polislarini sug'urtalanuvchilarga sotish hajmi deb keltirilgan. Biroq bizning nuqtai nazaramizda sug'urta bozori sig'imi yuqoridagi ta'rifga biroz o'zgartirish kiritgan holda quyidagicha ta'rif beramiz. Sug'urta bozori sig'imi – sug'urta kompaniyalarining joriy vaqtda mavjud bo'lgan aktivlariga bog'liq bo'lgan holda sug'urta kompaniyalari tomonidan maksimal darajada o'ziga risklar (javobgarlik) ni qabul qilish imkoniyati hisoblanadi.

Sug'urta bozori sig'imini klaster tahlil qilish orqali nafaqat sug'urta sig'imini kengaytish balki sug'urta bozorini rivojlantirish masalalari ham ochib berilishi mumkin. Sababi, sug'urta bozorini rivojlanishi bevosita sug'urta sig'imiga bog'liq ekanligini ko'rish mumkin. Sug'urta bozorini rivojlantirish bir tomondan sug'urtalovchilarga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan sug'urtalanuvchilarga bog'liq. Har ikki holatda ham moliyaviy holat muhim rol o'ynaydi. Chunki sug'urtalovchilarni moliyaviy holati ya'ni to'lov qobiliyati qancha yuqori bo'lsa sug'urtalanuvchilarning kompaniyaga bo'lgan ishonchi yuqori bo'ladi. Sug'urtalanuvchilarning ham moliyaviy holati yaxshi bo'lsa, ular o'z sug'urtaviy ehtiyojlarini qondira oladilar. Shuning uchun ham sug'urta bozorini rivojlanishi bevosita kapitalga bog'liq. Sug'urta bozorini kapitallashtirish sug'urtalovchilar to'lov qobilayatini va ular amalga oshiradigan operatsiyalarning moliyaviy barqarorligini oshirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, respublika sug'urta kompaniyalari kapital hajmi bo'yicha chet el sug'urtalovchilaridan ancha orqadaligi ham milliy, ham xalqaro sug'urta bozorida raqobat masalalarida muammolarga olib keladi. Shu sababli, sug'urta kompaniyalarni kapitallashuv darajasini oshirish, xalqaro me'yor va standartlarga erishishiga intilish lozim.



2.11-rasm. Sug'urta bozori sig'imi klasteri

Ushbu chizmadan kelib chiqqan holda sug'urta bozori sig'imini kengaytirish bo'yicha yuqoridagi omillar sug'urta bozorini rivojlanishiga ham sug'urtalovchilarning yanada moliyaviy barqarorlashishiga yordam beradi. Chunki sug'urta bozori rivojlangan mamlakatlarning ham sug'urtalovchilari yuqoridagi chizmada ko'rsatilgan omillarni to'g'ri tashkil etganligi sababli bugungi xalqaro sug'urta bozorida o'z o'rni va nufuziga ega.

Sug'urtalovchilarning ustav kapitalini oshirish masalasi sug'urta bozori endi rivojlanayotgan mamlakat uchun bir qancha muommolar tug'dirishi tabiiy hol hisoblanadi. Albatta sug'urtalovchilarning ustav kapitalini keskin ravishda oshirish qiyin. Milliy sug'urta bozorida hamma kompaniyalar ham birdik faoliyat olib borolmaydi. Bunga ma'lum bir sabablar ta'sir etadi va sabablarni yechimini bartaraf etish uchun esa ma'lum bir vaqt kerak bo'ladi.

2.6.-jadval

Sug'urtalovchilar uchun ustav kapitalining eng oz miqdorlari³⁸


(ming.evro)

Sug'urta faoliyati turlari	2012 yil 1 iyuldan	2014 yil 1 iyuldan
Umumiy sug'urta sohasida	1 125,0	1 500,0
Hayotni sug'urtalash sohasida	1 500,0	2 000,0
Majburiy sug'urtalash bo'yicha	2 250,0	3 000,0
Faqat qayta sug'urtalash bo'yicha	5 000,0	6 000,0

Hozirgi kunda ruspublikamiz sug'urta bozorida faoliyat olib borayotgan sug'urta kompaniyalarning moliyaviy qobiliyati har xil. O'zbekiston sug'urta bozorida asosan 3-4 ta kompaniyaning ulushi yuqori bo'lib turibdi. Sug'urta bozori rivojlanishi hamda sug'urta bozori sig'imini kengayishi uchun sug'urta bozorida raqobatbardosh kompaniyalarning soni xorijiy sug'urta bozori rivojlangan davlatlar singari eng kamida 9-14 tani tashkil etishi lozim. Anashunday holatdagina biz ko'zlangan va rivoj topgan sug'urta bozori vujudga kelishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat muhitining shakllanish jarayonida har qanday tijorat tashkiloti o'z daromadlari manbaini ko'paytirishni xohlaydi. Albatta sug'urta kompaniyalari ham bundan mustasno emas. Hozirgi kunda sug'urta kompaniyalari nafaqat sug'urta faoliyati bilan balki bundan tashqari investitsiya faoliyatlari bilan ham shug'ullanishi mumkin. Buning uchun esa hukumatimiz tomonidan ushbu faoliyat bilan shug'ullanish uchun bir qator qulayliklar yaratib berilgan.


³⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 31 maydagi PQ-1544 - sonli qaroriga ilova



2.11-rasm. 2007-2012 yillarda sug'urtalovchilarning ustav kapitallari o'zgarish dinamikasi³⁹

Sug'urtalovchilarning ustav kapitali miqdori 6 yildavomida 2,7 baravariga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Xorijiy sug'urta bozoridafaoliyat olib borayotgan ayrim sug'urta kompaniyalarning ustav kapitali miqdori milliy sug'urta bozorida faoliyat olib borayotgan barcha sug'urtalovchilarning ustavidan yuqori ekanligini bilish mumkin internet ma'lumotlaridan. Bunday holatda sug'urta bozorimizni horij sug'urta bozorlar bilan raqobat qilishi qiyin bo'ladi albatta. Shu sababli ham sug'urtalovchilarni ustav kapitali hamda moliyaviy barqarorligini oshirish bugungi kunda sug'urta bozoridagi muhim vazifalardan biri hisoblaniladi.

³⁹ SAIPRO axborot-reyting agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorland



2.12-rasm. 2007-2012 yillarda sug'urtalovchilar tomonidan sug'urtaga qabul qilingan javobgarlikni o'zgarishi dinamikasi⁴⁰

Yuqoridagi rasmdan shu narsani ko'rish mumkinki, sug'urtalovchilar tomonidan qabul qilinayotgan javobgarlik hajmi yil sayin o'sib borib, olti yil davomida qariyb 4 baravarga yetgan. 2007 yilda bu ko'rsatkich 29,2 trln.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilga kelib 111,2 trln.so'mga yetgan. Bu esa foiz hisobida 400%ga o'sish demakdir.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2009 yil 3 iyuldagi 68-sonli buyrug'iga bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchilarni investitsiya faoliyati tog'risida"gi nizom hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid chora-tadbirlari tog'risida"gi PQ-618-sonli qaroriga asosan sug'urtalovchilarni investitsiya faoliyati bilan shug'ullanishiga ruxsat berilgan va ularning moliya bozorida o'zlarining investitsiya faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun litsenziya talab etilmaydi. Shuningdek sug'urtalovchilar o'z aktivlarni obyektlarga joylashtirishda O'zbekiston Respublikasi Moliya

⁴⁰ SAIPRO axborot-reyting agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorland

vazirining 2008 yil 22 apreldagi 41-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida"gi nizomning IV bo'limida ko'rsatilgan talablarga rioya etishlari shart. Agar sug'urtalovchilar tomonidan ushbu talablarning normativ miqdoridan oshib ketishi bu bevosita sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Sug'urtalovchilarning ustav kapitalini oshirishning yana bir avzalliklaridan biri qayta sug'urta hizoblaniladi. Qayta sug'urtani rivojlantirish esa bevosita sug'urta bozori sig'imini kengaytirish orqali sug'urta bozorini rivojlanishiga ta'sir etibgina qolmasdan, mamlakatning valyuta siyosatiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Qayta sug'urta qilish operatsiyalarini yuqori saviya va tez vaqtda amalga oshirish uchun birinchi navbatda ikki tomon, ya'ni qayta sug'urta qildiruvchi va qayta sug'urtalovchi o'rtasida tegishli aloqa o'rnatilgan bo'lmog'i lozim. Shuning uchun sug'urta firibgarligini oldini olish va sug'urta portfellarini barqaror qayta sug'urta qilish himoyasi bilan ta'minlashda sug'urtalovchilar o'rtasida axborot almashinuv vositalari yordamida aloqa o'rnatish katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan qayta sug'urtalash operatsiyalarida mamlakatimizda chel eldan qayta sug'urta mukofotlarini qabul qilish darajasi nisbatan pastroq. Bu jarayonni tez va samarali amalga oshirishni yo'lga qo'yish uchun esa, milliy sug'urta kompaniyalari xalqaro bozorda keng ko'lamda hamkorlik ishlarini amalga oshirmog'i lozim. Xalqaro bozorda samarali foliyat olib borish uchun esa xalqaro reyting tashkilotlari tomonidan berilgan yuqori reyting darajasiga ham ega bo'lish zarur.

Qayta sug'urta qilish operatsiyalarida qayta sug'urta qilish mukofotlarining yirikligi va ularning asosan valyutada amalga oshirilishini hisobga olsak, sug'urtalovchilarning o'z mablag'larida va xorijiy valyuta rezervlarida vaqtinchalik yo'qotishlarni kuzatish mumkin.

II bob bo'yicha xulosalar

O'zbekiston sug'urta bozori Markaziy Osiyoda tezkor sur'atlar bilan rivojlanayotgan bozorlardan biri hisoblanadi. Sug'urta bozori bir necha yillardan beri barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'lib kelmoqda, bu esa o'z navbatida uning mamlakat iqtisodiyotidagi rolini oshirib bormoqda. O'zbekistonning hozirgi zamon iqtisodiyotida sug'urta tizimi strategic ahamiyat kasb etmoqda, buning boisi sug'urta tizimining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi, sug'urta bozorining davlat boshqaruvi organlari tomonidan mamlakatning bozor infratuzilmasining ajralmas qismlaridan biri sifatida ko'rib chiqilyotganligidir.

Sug'urta tizimida sug'urta bozori alohida o'rin egallab, shu erda sug'urtaxizmatlariga bo'lgan talab va taklif paydo bo'ladi. Sug'urta bozorini rivojlantirishdan davlat manfaatdor hisoblanadi, chunki sug'urta davlatning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan aholining moddiy farovonligini o'stirish va ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashgaxizmat qiladi. O'zbekiston sug'urta bozori keyingi yillarda birmuncha tez rivojlanmoqda. Buni chet el investorlarining milliy sug'urta bozorimizga qiziqishi ortayotganligida ham ko'rish mumkin. Buning sabablaridan biri sifatida shuni aytish kerakki, sug'urta sohasidagi qonunchilik bazasi keyingi yillarda sezilarli darajada mustahkamlandi va takomillashdi.

Sug'urta bozori sig'imi – sug'urta kompaniyalarining joriy vaqtda mavjud bo'lgan aktivlariga bog'liq bo'lgan holda sug'urta kompaniyalari tomonidan maksimal darajada o'ziga risklar (javobgarlik) ni qabul qilish imkoniyati hisoblanadi.

Sug'urta bozori sig'imini klaster tahlil qilish orqali nafaqat sug'urta sig'imini kengaytish balki sug'urta bozorini rivojlantirish masalalari ham ochib berilishi mumkin. Sababi, sug'urta bozorini rivojlanishi bevosita sug'urta sig'imiga bog'liq ekanligini ko'rish mumkin. Sug'urta bozorini rivojlantirish bir tomondan sug'urtalovchilarga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan sug'urtalanuvchilarga bog'liq.

III-BOB. O'ZBEKISTONDA MILLIY SUG'URTA BOZORI VA SIG'IMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.

3.1. Sug'urta kompaniyalarining rivojlanish istiqbollari ("O'zagrosug'urta" DASK (AJ) misolida

O'zbekiston sug'urta bozorida hozirgi kunda ko'plab sug'urta kompaniyalari o'z faoliyatlarini yuritmoqda. Ushbu sug'urta kompaniyalarni moliyaviy ko'rsatkichlari yildan yilga o'sib borib, sug'urta bozorini rivojlantirishga o'z xissasini qo'shmoqda. Hozirgi kunda 2014 yil 1 aprel holatiga O'zbekiston sug'urta bozorida 35 turli mulkchilik shaklidagi sug'urta kompaniyalari sug'urta faoliyati bilan shug'ullanib kelmoqda.

Sug'urta bozori tahlillari shuni ko'rsatadiki, so'ngi so'ngi yillarda sug'urta faoliyatini miqdor va sifat jihatdan ko'rsatkichlari ancha o'sdi. Sug'urta bozorini rivojlanish darajasi to'g'risida Respublikadagi YaIMda sug'urta xizmatlarining ulushi bo'yicha xulosa qilish mumkin. Respublikada bunday ko'rsatkichlar ijobiy o'sish sur'atiga ega (2010 yilda -0.28%, 2012 yilda -0.29%)⁴¹. Rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich YaIM ga nisbatan 10-12 % ni tashkil qiladi⁴², sug'urtalash tizimi orqali ularda yalpi milliy maxsulotning 10-12 % ni qayta taqsimlanadi. Buning sababi ushbu davlatlarda sug'urta bozorining rivojlanganlik darajasi bilan izohlash mumkin. Sug'urta bozori rivojlangan mamlakatlardagi sug'urta kompaniyalarining moliyaviy qobiliyati ham juda yuqori.

Bizning mamlakatimizda ham sug'urtalovchilarning moliyaviy holatini o'stirish va sug'urta bozorini rivojlantirish yo'lida hukumatimiz tomonidan samarali ishlar olib borilmoqda. Sug'urtalovchilarning ustav kapitallarini oshirish orqali ular faoliyat turini kengaytirish masalalari yo'lga qo'yib borilmoqda.

⁴¹ "Страховой бизнес в Узбекистане" ООО информационно-рейтинговое агенство "SAIPRO" г.Ташкент

⁴² www.insurance.ru

Hozirgi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida yetakchi o'rinlarni egallab kelayotgan "O'zagrosug'urta" DASK (AJ), "Uzbekinvest" EIMSK, "Kafolat" DASK (AJ), ASIA INSURANCE, Kapital, Alskom sug'urta kompaniyalari bozorda faol ishtirok etmoqda.

"O'zagrosug'urta" Davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi (AJ) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 25 fevraldagi "O'zagrosug'urta" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasini tashkil etish tog'risida"gi 1713-sonli Farmoniga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1197 yil 6 martdagi 125-sonli Qaroriga asosan ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan. Kompaniyaning asosiy ta'sischi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, "O'zpaxtasanoat" Uyushmasi, OATB "Agrobank", OATB "Qishloqqurilishbank" va boshqalar.

Kompaniya O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2010 yil 23 iyuldagi SF 00148-sonli Litsenziyasi asosida faoliyat yuritadi. "O'zagrosug'urta" DASK (OAJ), universal sug'urta kompaniyalaridan biri bo'lib, barcha turdagi yuridik va jismoniy shaxslarga 100 dan ortiq sug'urta xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Sug'urta xizmatlarini qulay va tezkor taqdim etilishini ta'minlash maqsadida kompaniya butun Respublika bo'ylab 189 ta hududiy bolinmalar va 492 ga yaqin agentlik shaxobchalariga ega. Bu Respublikaning nafaqat yirik shaharlarida, balki eng chekka hududlarda yashovchi va faoliyat yurituvchilar uchun sifatli sug'urta xizmatlaridan foydalanish uchun katta qulaylik demakdir. 2013 yil yakuniga ko'ra kompaniya bo'yicha yuridik va jismoniy agentlar soni 2242 taga yetdi.

2013 yil yakuniga ko'ra Kompaniya aktivlari 78,9 mlrd so'm, sug'urta zahiralar 44,9 mlrd so'm, sug'urta mukofotlari tushumi 61,7 mlrd so'm va to'langan sug'urta tovonlari hajmi 8,56 mlrd so'mni tashkil etdi.

Kompaniya doimiy ravishda mijozlar talabini o'rganib, taklif etilayotgan sug'urta turlari soda va qulay bo'lishiga katta e'tibor qaratadi. Mijozlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida va bajarishi natijasida Kompaniya bo'lgan ishonch mustahkamlanib, uning mijozlari soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Kompaniya mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish uchun doimiy rabishda o'z xodimlarini malasini oshirib borishga katta e'tibor qaratadi.

2012 yil davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 5 iyuldagi PQ -1783-sonli qaroriga asosan Kompaniya Ustav fondi 10.2 mlrd.so'mga yoki 5.0 mln. evro ekvivalenti miqdoriga etkazilib, chiqarilgan qo'shimcha aksiyalar belgilangan muddatlarida to'liq joylashtirildi.

2012 yilda belgilangan ustuvor yo'nalishlarning izchil amalga oshirish, Respublika sug'urta bozorida Kompaniya mavqeini mustahkamlash ishlariga alohida e'tibor qaratildi. Natijada sug'urta bozorida jami ta'minlangan sug'urta mukofotlarining 16.2 foizi Kompaniyamiz ulushiga to'g'ri keldi.

2012 yilda jami yig'ilgan sug'urta mukofotlarining hajmi 46,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan o'sish 8.6 mlrd.so'm yoki 123.1 foizni tashkil etdi.

Sug'urta mukofotlarining 28.5 mlrd.so'mi aholi sug'urtasi, 8.6 mlrd.so'mi qishloq xo'jalik sug'urtasi va 9.1 mlrd.so'mi boshqa sug'urta turlariga to'g'ri keladi.

Sug'urta mukofotlarining 21.2 mlrd.so'mi (45,9%) majburiy va 25.0 mlrd.so'mi (54.1%) ixtiyoriy sug'urta turlariga to'g'ri keladi.

Amalga oshirilgan ijobiy ishlar natijasida Kompaniya 2012 yil yakunlari bo'yicha sug'urta shartnomalari tuzish jihatidan Respublika sug'urta bozorida ilg'orlikni qo'lga kiritdi. 4 249 660 dona sug'urta shartnomalari tuzilib, Respublika sug'urta bozorida kuchda bo'lgan shartnomalarning 68,5 foizi Kompaniya ulushiga to'g'ri keldi.

Tuzilgan shartnomalarining 4 142 760 tasi aholi sug'urtasi, 37 443 tasi qishloq xo'jaligi sug'urtasi va 69 457 tasi boshqa sug'urta turlariga to'g'ri keladi.

Hisobot davrida Kompaniya tomonidan olingan sug'urta majburiyatlari bo'yicha jami 7664.2 mln.so'm sug'urta tovonlari to'lab berildi. SHundan kishlok, xujalik sugurtasi buyicha – 2934.2 (38.3%) mln.so'm, shu jumladan: qishloq xo'jaligi ekinlari hosili sug'urtasi bo'yicha - 2202.5 mln.so'm, fermer xo'jaliklariga tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan imtiyozli kreditlarning

qaytarilishi sug'urtasi bo'yicha - 107.2 mln.so'm va qishloq xo'jalik korxonalari mulki sug'urtasi bo'yicha - 88.6 mln.so'm to'landi.

Respublika sug'urta bozori bo'yicha 2012 yilda mijozlarga to'lab berilgan sug'urta tovonlarining 15.2 foizi Kompaniya ulushiga to'g'ri keldi.

To'langan sug'urta tovonlarining 3426.8 mln.so'mi (44.7%) aholi sug'urtasiga va 1303.2 mln.so'mi (17,0 %) kichik va o'rta biznes sub'ektlari ulushiga to'g'ri keldi.

Tuzilgan shartnomalar bo'yicha olingan majburiyatlar 17094.7 mlrd.so'mni tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan olingan majburiyatlar hajmi 4 544.1 mlrd.so'mga oshdi, yoki o'sish darajasi 136.2 % ni tashkil qildi.

Olingan sug'urta majburiyatlarning **11 088.6** mlrd.so'mi (64.9%) aholi sug'urtasiga, 608.1 mlrd.so'mi (3.6%) kishlok, xujalik sugurtasiga va 5 398.0 mlrd.so'mi (31.6%) kichik va o'rta biznes sub'ektlari ulushiga to'g'ri keldi.

Sug'urta Kompaniyalari daromadlarining asosiy qismlarini investitsiya faoliyatidan olinadigan daromadlar tashkil etadi. Investitsiya faoliyati bo'yicha ham bir qator ishlar amalga oshirildi.

Kompaniyaning investitsion portfeli kengayib, investitsiyaga joylashtirilgan mablag'lar 2012 yilda 44258.9 mln.so'mni tashkil etib, 2011 yilga nisbatan 18291,7 mln.so'mga oshdi.


Investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'lar asosan qishloq xo'jalik korxonlari bilan bevosiga ishlaydigan tijorat banklari va qimmatli qog'ozlar bozoriga yo'naltirildi.

Sohada sug'urta agentlarining ko'paytirishga jiddiy e'tibor qaratilishi, zarar ko'rgan aholi mol-mulkiga sug'urta tovonlarining o'z vaqtida to'lab berilishi natijasida aholining Kompaniya faoliyatiga bo'lgan ishonchi yanada oshdi.

Kompaniya tizimida faoliyat ko'rsatib kelayotgan xodimlar va agentlar soni 3813 tani tashkil qilib, shundan 1294 tasi shtatdagi xodimlar, 2498 tasi jismoniy agentlar va 118 tasi yuridik agentlar.

Toshkent shahrida direksiya tashkil etilib, shahardagi barcha tumanlarda hududiy bo'linmalar tashkil etish orqali qo'shimcha 60 shtat birligi ajratildi.

3.1-rasm . 2012 yil O'zagrosug'urta DASK (AJ) ning sug'urta partfelining tarkibi



2012 yilda sug'urta portfelini tarkibi quyidagilardan iborat:


- transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi – 15.4 %;
- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi – 0.44 %;
- baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urtasi – 59.3 %;
- mol-mulk sug'urtasi 23.6%;
- ixtiyoriy javobgarlik sug'urtasi – 0.6 %;
- qishloq xo'jalik ekinlari hosili sug'urtasi – 0.57 %.

Hududiy bo'linmalar tomonidan qo'shimcha vakolatxonalar ochilib, transport vositalari gavjum joylarda ko'chma shaxobchalar tashkil etilishi, markazlashtirilgan aloqa tizimining joriy etilishi, xududlarda turli tashkilotlar bilan hamkorlik ishlarning uyushtirilishi va elektron dasturlarning tuzilishi oqibatida mijozlarga qulayliklar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008 yil 20 noyabrdagi 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan ro'yxatga olingan «Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi nizom»ga asosan:

Kompaniya tomonidan 2012 yilda barcha turlar bo'yicha shakllantirilgan sug'urta zaxiralari 45.6 mlrd.so'mni tashkil qildi.

**3.2.-rasm. Kompaniyada jamg'arib borish xususiyatiga ega bo'lgan
TVEFJMSQ va IBFJMSQ bo'yicha shakllantirilgan barqarorlashtirish
zaxiralarining umumiy sug'urta zaxiralaridagi ulushi**



Shundan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi (TVEFJMS BZ) va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi (IBFJMS BZ) - 26.6 mlrd.so'm (58.3%) ;boshqa sug'urta turlari bo'yicha - 19.0 mlrd.so'm (41.7%) tashkil qildi.

"Saypro" axborot-reyting agentligi tomonidan amalgam oshirilgan tahlillar bo'yicha 2013 yil yakunlari ko'ra sug'urta bozoridagi kompaniyalar orasida axborot-reyting agentligi tomonidan amalga oshirilgan tahlillar bo'yicha 2013 yil yakunlariga ko'ra sug'urta bozoridagi kompaniyalar orasida "O'zagrosug'urta" DASK (AJ) tuzilgan shartnomalar soni, sug'urta mukofotlari hajmi, to'langan sug'urta tovonlari bo'yicha birinchi o'rinlarda ketmoqda.

Kompaniya O'zbekiston sug'urta bozorining eng birinchi va bugungi kunda eng ilg'or kompaniyalaridan biri sifatida o'z o'rnini va imidjiga ega. U izchil rivojlanish yo'lidan borib, mamlakatimizda sug'urta ishini iqtisodiyotning muhim tarmog'iga aylantirish, aholi o'rtasida sug'urta madaniyatini oshirish, mijozlarga aynan ular xohlagan sug'urta xizmatlarini taklif etish, ilm-fanning eng ilg'or g'oyalarini ishlab chiqarish jarayonlariga tadbiq etish va kadrlarning ishlab chiqarish samaradorligini yanada yaxshilash samaradorligini amalda qo'llamoqda.

“O’zagrosug’urta” DASK (AJ) 2013 yil yakunlari bo’yicha O’zbekiston sug’urta bozorida sug’urta mukofotlari hajmi bo’yicha 21.5%, sug’urta qoplamalari bo’yicha 13.79%, sug’urta sharnomalari tuzish bo’yicha 66.58% ulushga ega bo’ldi. Bundan ko’rinib turibdiki ushbu kompaniya bozordagi xaridorlarni ishonchini oqlayotganidan dalolat beradi. Buning yorqin isboti sifatida 2014 yil 21 aprel kuni Toshkentda VII Xalqaro investision-moliyaviy forumi doirasida sug’urta sohasida “Oltin soyabon” jamoatchilik jamoatchilik mukofotiga loyiq topilgan nomzodlarni taqdirlash marosimida ikkinchi bor “Oltin soyabon” mukofotining “Eng yaxshi sug’urta kompaniyasi” nominatsiyasiga “O’zagrosug’urta” DASK (AJ) sazovor deb topildi.


Hozirgi kunda O’zbekiston Respublikasi hududida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish huquqiga quyidagi sug’urta tashkilotlari haqlidirlar:

1. “O’zagrosug’urta” davlat-aktsiyadordik sug’urta kompaniyasi;
2. “O’zbekinvest” eksport-import milliy sug’urta kompaniyasi;
3. “Kafolat” davlat-aktsiyadorlik sug’urta kompaniyasi;
4. “Kapital sug’urta” sug’urta kompaniyasi;
5. “Alfa invest” sug’urta kompaniyasi;
6. “Asia insurers” sug’urta kompaniyasi;
7. “Alskom” sug’urta kompaniyasi;
8. “Ishonch” banklararo sug’urta kompaniyasi;
9. “Universal sug’urta” sug’urta kompaniyasi.

Yuqorida nomlari keltirilgan sug’urta tashkilotlarining ustav fondi 2012 yil 1 iyuldan sug’urtalovchilarning ustav fondlariga nisbatan o’rnatilgan yangi talablarga to’la-tukis mos keladi. Ma’lumki, 2012 yil 1 iyuldan majburiy sug’urtani amalga oshiruvchi sug’urtalovchilar uchun ustav fondi eng kam miqdori 2,250 ming.evro ekvivalentidagi summadan kam bo’lmasligi shart. Bu haqda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 31 mayda qabul qilingan “Sug’urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo’shimcha

chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-1544-son Qarorida aniq ko'rsatilgan⁴³. Shuningdek, mazkur sug'urta tashkilotlarining O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida filiallari mavjud.

3.3-rasm. 2009-2013 yillarda O'zbekiston sug'urta bozorida TVEFJMSQ bo'yicha sug'urta mukofotlari va to'lovlari o'zgarishi dinamikasi⁴⁴



Yuqoridagi diagrammadan shuni ko'rish mumkinki, so'ngi besh yil davomida sug'urta mukofotlarining o'sib borishi kuzatilgan. 2013 yilda 57 903,9 mln.so'm sug'urta mukofoti yig'il yuqoridagi 9 ta sug'urta kompaniyasi tomonidan. Bu esa 2009 yilga nisbatan 1,9 baravar ko'p degani. 2013 yilda 2012 yilga nisbatan 12 544,4 mln.so'm ko'p sug'urta mukofoti yig'ilgan. Bundan ko'rinib turibdiki ushbu sug'urtalovchilar 2013 yilda bozorda faol harakat qilgan. Sug'urta to'lovlari ham besh yil davomida o'sib borish tendensiyasiga ega. 2009 yilga nisbatan 208% ga o'sish bor 2013 yilda.

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2008 yil 21 maydagi PQ-872-son qarori.// Xalq so'zi, 2008 yil 22 may.

⁴⁴ SAYPRO axborot-reyting agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

**2013 yil O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urtalovchilarning TVEFJMSQ
bo'yicha sug'urta shartnomalari soni va mukofotlari reytingi⁴⁵**

3.1. -jadval


№	Kompaniyalar	Shartnomalar soni	Ulush % da	Sug'urta mukofotlari (mln.so'm)	Ulush % da
1	O'zagrosug'urta	718 350	40.6	20 371.8	35.2
2	Kafolat	310 248	17.5	10 769.7	18.6
3	Kapital sug'urta	158 758	9.0	6 140.8	10.6
4	Alskom	148 585	8.4	4 840.8	8.4
5	Alfa Invest	118 033	6.7	4 277.7	7.4
6	Asia Insurance	111 640	6.3	4 224.9	7.3
7	Uzbekinvest	23 999	4.7	3 112.8	5.4
8	Universal Sug'urta	75 962	4.3	2 617.3	4.5
9	Ishonch	42 857	2.4	1 548.1	2.7

O'zbekiston sug'urta bozorida TVEFJMSQ bo'yicha ham "O'zagrosug'urta" DASK (AJ) yetakchilik qilmoqda. Ushbu kompaniya sug'urta turi bo'yicha bozorda sug'urta shartnomalari tuzish bo'yicha 40.6% , sug'urta mukofotlarini yig'ich bo'yicha 35.2% ulushga ega. Keyingi o'rinlarda esa "Kafolat" DASK (AJ) mos ravishda 17.5 % va 18.6% , Kapital Sug'urta 9.0% va 10.6% ulush bilan bormoqda. Kuchli beshlik esa Alfa Invest sug'urta kompaniyasi 6.7% va 7.4% ulush bilan yakunlagan.

⁴⁵ SAYPRO axborot-reyting agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

3.4.-rasm. 2013 yil O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urtalovchilarning TVEFJMSQ bo'yicha sug'urta to'lovlari reytingi⁴⁶

№	Kompaniyalar	Sug'urta to'lovlari	ulus h %
1	O'zagrosug'urta	1620,7	21,9
2	Kafolat	1473	19,3
3	Kapital Sug'urta	1330,8	18
4	Alfa Invest	1110	15
5	Asia Insurance	559,9	7,6
6	Alskom	535,9	7,2
7	Uzbekinvest	326,1	4,4
8	Ishonch	267,1	3,6
9	Universal Sug'urta	181,3	2,4



Yuqoridagi ma'lumotlardan shuni ko'rish mumkinki, TVEFJMSQ bo'yicha sug'urta to'lovlarida "O'zagrosug'urta" kompaniyasi yetakchilik qilmoqda. Keyingi o'rinlarda esa, "Kafolat" va "Kapital Sug'urta" kompaniyalari borishmoqda. Ushbu sug'urta kompaniyalari sug'urta mikofotlarini yig'ish bo'yicha ham yetakchilik qilgan edi. "O'zagrosug'urta" kompaniyasining bozordagi ulushi 21,9% ni tashkil etgan bo'lsa, "Kafolat" 19,3% "Kapital Sug'urta" 18% ulushga ega bo'lib turibdi. Ushbu sug'urta turi bo'yicha 2012-2013 yillardagi sug'urta to'lovlarini o'zaro kompaniyalar misolida tahlil qiladigan bo'lsak, "O'zagrosug'urta" kompaniyasining sug'urta bozoidagi to'lovlar hajmi 2012 yilda 11,7% ni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilga bu ko'rsatkich 8,0% ni tashkil

⁴⁶ SAYPRO axborot-reyting agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

etgan. Qolgan kompaniyalarda esa bu ko'rsatkich 2012 yilga nisbatan 2013 yilda o'sishi kuzatilgan.

3.2. Sug'urta bozori sig'imini kengaytirishning istiqbolli yo'nalishlari

Bugungi kunda sug'urta bozorida faoliyat olib borayotgan sug'urta kompaniyalari sug'urta salohiyatidan yetarli darajada foydalanaololmayapdi. Aslida sug'urtalovchilarning potentsiali yuqori ekanligini yuqoridagi tahlillardan ko'rish mumkin. Biz sug'urta bozori sig'imini kengaytirish uchun albatta, yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalangan holda sug'urta bozorini rivojlantirishimiz va bu orqali mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi yuqori darajaga olib chiqishimiz mumkin.

Rivojlangan davlatlarda yuridik va jismoniy shaxslar risklarning 90-95% ini sug'urtalaydilar, bizda esa bu ko'rsatkich yuqori emas. Shu sababli yuridik va jismoniy shaxslar mulkini kattagina qismida sug'urtaviy himoya ta'minlanmagan. Bularning barchasi Ruspública sug'urta bozorida sug'urta tashkilotlarining mijozlarni jalb qilish uchun maydonning mavjudligidan dalolat beradi.

Respublika bo'yicha 2012-2016 yillarda xizmat sohalarini asosiy turlarini rivojlantirishning maqsadli parametrlariga muvofiq, 2017 yilgacha moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta xizmatlari 2.2 martaga o'sishi belgilangan. 2016 yilga borib, mamlakat YaIM da xizmatlarning ulushini 55% gacha oshirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 nayabrdagi PP-1438-sonli "2011-2015" yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari yog'risida" Qaroriga muvofiq milliy sug'urta kompaniyalar faoliyatini yanada kengaytirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligi belgilab berildi:

- bosqichma-bosqich sug'urtalovchilar nizom jamg'armalarining minimal miqdori talabini oshirib boorish;

- hayotni sug'urtalash tarmog'ini, shu jumladan hayot sug'urtasining uzoq muddatli va jamg'arish turlarini kelgusida rivojlantirish maqsadida me'yoriy-huquqiy xujjatlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritib boorish;
- sug'urta tashkilotlarining sug'urta, moliyaviy va vositachilik faoliyatlari bo'yicha xujjatlarni taqdim etilishining yagona elektron tizimini shakllantirish;
- sug'urta tashkilotlari rahbari va bosh buxgalterlariga qo'yiladigan malaka talablarini kuchaytirish;
- kelgusida sug'urta bozori infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadida sug'urta bozori professional ishtirokchilari: adjasterlar, syurveylar, aktuariylar, assistans xizmatini ko'rsatuvchilar faoliyatini kengaytirish kabi ustuvor chora-tadbirlar.

Bundan ko'rinib turibdiki sug'urta bozorini rivojlantirish va sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini oshirish orqali mamlakat iqtisodiyotida sug'urta sohasini mavqeini ko'tarishga e'tibor qaratilgan.

Sug'urta bozorini kapitallashtirish sug'urtalovchilar to'lov qobilayatini va ular amalga oshiradigan operatsiyalarning moliyaviy barqarorligini oshirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, respublika sug'urta kompaniyalari kapital hajmi bo'yicha chet el sug'urtalovchilaridan ancha orqadaligi ham milliy, ham xalqaro sug'urta bozorida raqobat masalalarida muammolarga olib keladi. Shu sababli, sug'urta kompaniyalarni kapitallashuv darajasini oshirish, xalqaro me'yor va standartlarga erishishiga intilish lozim.

Kapitallashuv dajasini oshirish uchun sug'urta tashkiloti sug'urta hamda sug'urta faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan faoliyatdan keladigan daromadlari va sug'urta zaxiralaridan samarali foydalanishi, ya'ni qonunda ko'rsatilgan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanishda yuqori darajada foyda oladigan obyektlarga o'z mablag'larini joylaytirishi kerak bo'ladi.

Sug'urta bozori sig'imini kengaytirishga subyektiv va obyektiv omillar ta'sir qiladi. Bu ikki omil sug'urtaviy tomondan olib qaraganda bir-biriga uzviy bog'liq. Sababi ko'proq subektiv omillarni obyektiv omillarga ta'sir doirasi kengroq. Subektiv omillar deganda, bevosita sug'urtalovchilar imkoniyatidan kelib chiqadigan sabablar, obyektiv omillar esa sug'urtalanuvchilarga bog'liq bo'lgan holatlar hisoblaniladi.

Yuqorigilardan kelib chiqqan holda sug'urta bozori sig'imini kengaytirishga ta'sir qiluvchi subektiv omillar quyidagilar:

- ⇒ sug'urtalovchilarning ustav kapitalini oshishi orqali moliyaviy barqarorligini ta'minlash;
- ⇒ qayta sug'urta faoliyati bilan shug'ullanuvchi sug'urtalovchilarni sonini ko'paytirish;
- ⇒ sug'urta bozori infratuzilmasini yaxshilash;
- ⇒ sug'urta bozorida sog'lom raqobat muhiti;
- ⇒ sug'urta kompaniyalariga investitsiyalarni jalb qilish va ularni ishlatishni samarali yo'nalishlarni izlab topish;
- ⇒ sug'urta maxsulotlarini sotishni yangicha yo'llarini yaratish (marketing, reklama);
- ⇒ yuqori daromadli sug'urta maxsulotlarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish;
- ⇒ sug'urta maxsulotlarining sifat va qulaylik darajasi.

Yuqorigilardan kelib chiqqan holda sug'urta bozori sig'imini kengaytirishga ta'sir qiluvchi obyektiv omillar quyidagilar:

- yuridik va jismoniy shaxslarning sug'urtaviy madaniyati;
- yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy holati;
- yuridik va jismoniy shaxslarning sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchi;
-

- yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatiga ta'sir etuvchi risklarning mavjudligi va ularning risklilik darajasi;
- va boshqalar.

Sug'urtalovchilarning ustav kapitalini oshirishning bir necha yo'llari mavjud. Qimmatli qog'ozlar bozorida sug'urtalovchilar ham emitent hisoblanadi va ular o'z qimmatli qog'ozlarini muomulaga chiqarishlari mumkin. Shuningdek sug'urta faoliyatidan olingan foyda hisobiga ham ustav kapitalini oshirishi mumkin.

Shuningdek qayta sug'urtani rivojlantrish sug'urta bozorini rivojlantirishga va bozor sig'imini kengaytrishga asosiy omillardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda milliy sug'urta bozorida eng katta muammolaridan biri bu qayta sug'urta mukofotlarining juda katta qismi valyuta ko'rinishida chetga chiqib ketayotganligidir. Bu holat nafaqat sug'urta sohasiga, balki davlatning pul kredit siyosatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Chunki boshqa davlatlar bilan amalga oshirilayotgan barcha qayta sug'urtalash operatsiyalari valyutada amalga oshiriladi va bu qayta sug'urta mukofotlari bilan bir qatorda davlatimizdan valyutaning ham chiqib ketishiga olib keladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, qayta sug'urta qilish bo'yicha absalyut ko'rsatkichlarning o'sishi sug'urta bozoridagi qayta sug'urta qilish operatsiyalari hajmi ulushining o'sishini bildirmaydi. Bu o'sish faqatgina milliy sug'urta bozorimizdagi sug'urta mukofotlarining umumiy o'sishi bilangina bog'liqdir. Milliy sug'urta kompaniyalarimiz qayta sug'urtalashni katta hajmda xorijiy kompaniyalar bilan amalga oshirishiga sabab, mamlakatimizda qayta sug'urtaga katta hajmdagi risklarni qabul qila oluvchi kompaniyalarning juda kamligidir. Hozirgi kunda "Uzbekinvest" EIMSK qayta sug'urta faoliyati bilan, 2013 yil 1 martdan boshlab esa "O'zagrosug'urta" DASK (AJ) kompaniyasi qayta sug'urta operatsiyalari bilan shug'ullana boshladi. Bu esa, mamlakatimiz qayta sug'urtalovchi kompaniyalari yana bittaga ko'paygani va qayta sug'urta mukotlarini mamlakatimizda olib qolish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Fikrimizcha, mamlakatimizda qayta sug'urta mukofotlarini chetga chiqib ketishini oldini olish va sug'urta bozori sig'imini kengaytirishga xizmat qildi.

Chetga qayta sug'urta mukofotlarni hajmini chiqib ketishi oldini olish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz:

- davlat kumagi ostida sug'urta bozoridagi yetakchi kompaniyalar ishtirokida sug'urta "POOL"ni tashkil etish orqali yuqori hajmdagi risklarni milliy sug'urta bozorimizda sug'urtalash imkoniyatini yaratish.
- qayta sug'urta qilishga iqtisodiy talab mavjud bo'lmagan hollarda, xorijga qayta sug'urta qilishning oldini olish uchun boshqa mamlakatlar bilan amalga oshirilayotgan qayta sug'urtalash kvotasining davlat tomonidan ishlab chiqishi lozim. Qayta sug'urta qilishning bunday huquqiy muvofiqlashtirilishi va bir vaqtning o'zida ichki sug'urta bozorida qayta sug'urta qilishni rag'batlantirishning solikli mexanizmi bilan qo'shimcha tarzda to'ldirilishi va mamlakatimizdan tegishli ravishda xorijga qayta sug'urta qilishga uzatishlar hajmini chegaralash mumkin.
- yirik aksiyadorlik tijorat banklari ishtirokida faqat qayta sug'urta faoliyati bilan shug'ullanuvchi, ustav kapitali 40 mln yevro dan ziyod bo'lgan qayta sug'urtalovchi kompaniyani tashkil etish.

Sug'urta bozori infratuzilmasini yaxshi bo'lishi sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Sug'urta bozorining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi aksariyat ekspertlar va taxlilchilarning fikriga ko'ra, mamlakatimiz mintaqalarida raqobat muhiti sust ko'rinishga ega. Eng achinarlisi, aksariyat qishloq tumanlarida sug'urta xizmatlarini ko'rsatish hamon yagona sug'urtalovchi - "O'zagrosug'urta" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasining tuman bo'limlari tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Haqiqatda, unga raqobatda bo'ladigan tuman bo'limlari aksariyat sug'urta tashkilotlari tomonidan joylarda tashkil etilmagan. Ayni chog'da bu vaziyat to'liq barcha viloyatlarga tegishlidir. Bunday holatlar esa sug'urta bozorida raqobat muhitning sustligi va respublikamizning chekka hududlarida

yashayotgan aholining sug'urta xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini qondirilmayotganligi va bu bevosita sug'urta bozori sig'imini kengayishiga o'zini ta'sirini o'tkazibgina qolmaydi. Statistik ma'lumotlardan shuni ko'rish mumkinki respublika aholisining 65% qishloq joylarda yashaydi. Shu sababli ham bu hududlarda sug'urta xizmatlarini tashkil etish sug'urtalovchilar uchun moliyaviy jihatda daromadli bo'lib, aholi uchun esa moliyaviy himoya va ularning sug'urtaviy madaniyatini o'sishiga omil bo'ladi.

Sug'urta bozori sig'imini kengaytirishga sabab bo'luvchi yana bir omillardan biri investitsiyalarni sug'urta kompaniyalariga jalb qilish. Investitsiyalar nafaqat sug'urta kompaniyalariga balki iqtisodiyotga uchun hisoblaniladi. O'zbekistondagi mavjud investitsiya muhiti, sug'urta tashkilotlariga investorlarning investitsiya risklarini baholash asosida chet el investitsiyalari kirib kelishiga qulayliklar yaratish kerak. Chet ellik va mahalliy investorlar qabul qiluvchi mamlakatdagi investitsiya muhitini, uning havfsizligi, siyosiy risklar darajasi va ularning sug'urtalanishi, investitsiyalash maqsadlarga muvofiqligi, iqtisodiyotning boshqalarga qaraganda qulayligi nuqtai nazardan baholaydilar. Bugungi kunda mamlakatimizda investorlar uchun qulay investitsiya muhiti yaratilgan.

Sug'urta kompaniyalariga investitsiyalarni jalb etishning foydali tomonlari quyidagilar:

- ✓ sug'urtalovchilarning ustav kapitalining oshishi va ularning sug'urtaviy imkoniyatlarini kengayishi;
- ✓ imkoniyatidan kelib chiqqan holda nafaqat milliy bozorda shuningdek xalqaro bozorga chiqish imkoniyati;
- ✓ sug'urtalovchilarning hududiy filiallari kengaytrishi va raqobat muhitining shakllanishi;
- ✓ qayta sug'urta faoliyati bilan shug'ullanuvchi sug'urtalovchilarni tashkil etish va mamlaktdan hududidan valyuta chiqib ketishini oldini olish .

Sug'urta bozorini rivvojlanishida , sig'imini kengaytirishda va sug'urta mukofotlarini ishlab topishda eng asosiy narsa bu sug'urta maxsulotlari (xizmatlari) ni sotish hisoblanadi. Chunki sug'urta maxsulotlari (xizmatlari) ni sotmasdan turib bunday natijalarga erishishning imkoni yo'q. Sug'urta mahsulotlarini sotishning turli xil usullari va yo'llarini o'zlashtirish uchun sotish texnologiyasini egallashga asoslangan o'qitish muhim o'rin tutadi. Sotish texnologiyasi bo'yicha o'qitish sotuvchining shaxsiy tajribasiga asoslangan holda yoki aniq bir vaziyatni tahlil qilish asosida bo'lsa, juda yaxshi, lekin nimadan boshlash zarurligini, shartnomani qanday boshlash va qachon tugatish kerakligini bilmasa, natija salbiy yakun topadi.

Sug'urta mahsulotlarini sotishni milliy modelini takomillashtirishda davlatning roli katta. Sug'urta mahsulotlarini sotishni takomillashtirishni milliy modeli shundaki u qonun asosida qabul qilinib amaliyotga tadbqiq etiladi. Ular quyidagilar:

- Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash;
- Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash. to'g'risidagi qabul qilingan qonun va qarorlarni ko'rishimiz mumkin.

Sotishni takomillashtirishni o'zlashtirishda mijoz bilan shaxsiy uchrashuvlarni olib borish san'atini egallab olish ayni muddaodir. Ma'lumki, mijoz bilan uchrashuvda bir necha kishi ishtirok etishi mumkin. Masalan, agent bir oila bilan uchrashib, ularga sug'urta "mahsulot"ini taklif etayotganda, tabiiyki, bir necha kishidan iborat oila a'zolari qatnashadi. Sug'urta agenti mahsulotni sotish uchun oila a'zolari safidan qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kishini tanlaydi va u bilan shartnoma tuzadi. Ba'zi mutaxassislar bir guruh turli tarkibdagi shaxslar bilan suhbat uyushtirish natijasida xam sug'urta mahsulotlarini sotish mumkin, degan fikrni ilgari suradilar. Sotishni bir odam bilan bevosita aloqa qilgan holda tugallash lozim bo'ladi.

Sug'urta bozorida raqobatdosh sug'urta kompaniyasini yutib chiqish uchun, jahondagi rivojlangan mamlakatlar sug'urta kompaniyalarining tajribalaridan

ma'lumki, avvalo sug'urta xizmatlarining eng yangi turlariga etiborni qaratish muhimdir, ya'ni:

1. Sug'urta kompaniyasining bozorga chiqarayotgan sug'urta mahsuloti reklamasini kuchaytirib, unda yangi sug'urta mahsulotlari tarkibi e'lon qilib borilishi kerak.
2. Sug'urta mahsulotini jamiyatdagi eng e'tiborli, obro'li odamlar orqali, ekspertlar orqali baholab bu fikrlarni tarqatish.
3. Sug'urtalanuvchilarni yangi sug'urta mahsulotlarining zamonaviy turlariga qiziqishlarini orttirish orqali sug'urta mahsulotiga real mijozlar tayyorlash mumkin.
4. Sug'urta bozorida kompaniya chiqarayotgan mahsulotning eng foydali tomonlarini targ'ib qilish orqali xaridorlar fikrini shakllantira olish.
5. Yangi sug'urta mahsulotini xaridorlar tomonidan qabul qilinganligi yoki qabul qilinmaganligi sababini tahlil etib chora ko'rish.

Sug'urta mahsulotlarini sotishning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- sug'urta mahsulotlari iste'molchisi bo'lgan mijoz bilan ishonchli muloqotda bo'lish;
- sug'urta mahsulotlarini sotish.

Shundan kelib chiqqan holda sug'urta mahsulotlarini sotish texnologiyasini ikki qismga bo'lish mumkin:

- mijoz bilan muloqotni boshqarish;
- sug'urta mahsulotini sotish davri va har bosqichda samarali harakatlar bo'lishi lozim.

Mijoz bilan ishonchli mulokotga kirishish kerakligining sug'urta mahsulotlarini sotish jarayonidagi ahamiyati katta. Sug'urta mahsulotlari iste'molchilariga nisbatan tizimli yondashuvda, sotish mijozning ahamiyatga ega muammolarini u uchun manfaatli variantda hal qilish taklifi sifatida qaraladi. Demak, sotish jarayonida sug'urta agenti o'z mijozi to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Avvalo, agent uning ko'zga ko'rinarli muammolarini aniqlashi

kerak. So'ngra, mijozning moliyaviy imkoniyatlarini bilish maqsadga muvofiq. Qolaversa, agent mijozga sug'urta mahsulotining u uchun foydali jihatlarini ko'rsatib berishi kerak. Mazkur sotish sxemasiga asoslanib haqiqatda yuzaga keladigan sotish jarayoni haqida fikr bildirish mumkin.

Ro'paramizdan chiqqan har qanday odamga sug'urta mahsulotlarini sotib olish haqida gapirish noo'rin bo'lar edi. Sotishdan avval agent mijozni o'z ishonchiga kirishiga karatilgan hatti-harakatlarni amalga oshirishi va buning uchun tegishli shart-sharoitlar yaratishi shart. Sug'urta mahsulotlarini sotuvchi agent mijoz bilan aloqa o'rnatishi uchun alohida harakatlar qilishi talab etiladi. Chunki mijoz ham o'z navbatida sotuvchi haqida maxsus axborotga ega bo'lishi kerak. Bayon etilganlar mijoz bilan bitimga erishishda birdaniga ikki savdo mavjudligini ko'rsatayapti. Avvalambor, sug'urta mahsulotlarini sotuvchi agent "o'zini mijozga sotishi" kerak, ya'ni mijoz bilan ishonchli va ijobiy muloqotlarga kirishish, fakat shundan keyin sug'urta xizmatlarini taklif etishi zarur.

Jismoniy shaxslar o'rtasida tuziladigan bitimlarning 70 foizdan 95 foizigacha bo'lgan muvaffaqiyati mijozning qanchalik sotuvchiga ishonishiga bog'liq. Bu fikr sotish bo'yicha olimlarning kuzatishlariga asoslangan. Sug'urta mahsulotlari sotuvchisining mijoz bilan "shaxsiy aloqa"ni o'rnatishi va boshqarishi mijoz hamda sotuvchi o'rtasida ishonchning yuzaga kelganligidan nishonadir. Bu holat sug'urta agentida "o'zini sotish" mahorati mavjudligini ko'rsatadi.

Shu o'rinda qayd etish zarurki, sotish jarayonidagi muvaffaqiyat-sizlikni ham texnologiya asosida tasavvur qilish mumkin. Ayrim hollarda sug'urta mahsulotlarini sotuvchilar mijoz bilan ishonchli va yaxshi munosabatlar o'rnatishdan avval o'z mahsulotlarini sota boshlaydilar. Bu sotuvchi tomonidan mahsulotni sotishda texnologik yo'nalish bo'yicha to'g'ri harakat qilmaganlikning oqibatidir.

Shaxsiy fe'l-atvor mijoz bilan muloqot o'rnatishda muhim ahamiyatga ega. Mijozlarning fe'l-atvori turlicha bo'lishiga qaramasdan ularni birlashtiruvchi

umumiy me'yorlar mavjud. Sug'urta agenti mijoz bilan aloqa o'rnatishda aynan shu me'yorlarga tayanishi mumkin.

Sug'urta agenti mijoz bilan o'zaro foydali muloqot o'rnatish uchun quyidagi oltita muhim omilni e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim:

- o'zaro hayrixohlik. Bu sifat yaxshi ish munosabatlarini o'rnatish uchun muhim shart hisoblanadi. Muruvvatlilik, manfaatlarning umumiyligi hayrixohlikni oshiradi.
- tomonlarning bir-biriga hurmati. Savdo bitimi munosabatlari mustahkam bo'lishining yana bir muhim sharti bu hamkorlarning bir-biriga bo'lgan hurmatidir.
- tomonlarning bir-biriga o'zaro ishonchi. Sotish texnologiyasining muvaffaqiyati hamkorlarning bir-biriga ishonchi o'zaro ochiqchilik, vijdonda, hulqining «tiniq»ligida, tartibliligidagi va ishonchliligidagi bilindi.
- o'zaro tirishqoqlik. Sug'urta mahsulotlarini sotuvchi sifatida agent hamma kuch-g'ayratini mijoz bilan yaxshi muomalada bo'lishga qaratishi lozim.
- sotuvchi va mijoz o'rtasidagi munosabatlarning jadalligi. SHuni yoddan chiqarmaslik kerakki, o'zaro munosabatlar ikkala tomon bir-biri bilan doimiy muloqotda bo'lib turgandagina yaxshilanadi. Agar sug'urta mahsulotlarini sotuvchi agent mijozlar bilan muntazam yaxshi va mustahkam aloqada bo'lib turish imkoniyatini topa olmasa, u holda hamma e'tiborni harakatlarni katta daromad keltiruvchi mijozlarga qaratishi kerak. Mutaxassislarining fikrlaricha, sug'urta agenti bir paytning o'zida beshtadan ortiq bo'lmagan mijozlar bilan haqiqatda yaxshi va mustahkam aloqada bo'la oladi.
- puxta bilimli bo'lish. Sug'urta agenti o'z kompaniyasini mijozga tanishtirish jarayonida unga kompaniyaning erishgan yutuklari va ijobiy tomonlari haqida haqida so'z ochadi. Agarda agent o'zini puxta bilim egasi qilib ko'rsata olmasa, mijoz bilan bo'ladigan hamma yaxshi munosabatlari izdan chiqadi.

Bugungi kunda sug'urta bozorida sug'urta mukofotlarining ko'pgina qismi transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish, ish beruvchini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish, mol-mulk sug'urtasi, shaxs sug'urtasi va boshqa sug'urta turlaridan kelib tushmoqda. Lekin iqtisodiyotimizdagi muhim sohalardan biri bo'lgan kichik biznes va tadbirkorlikni sug'urtalashdan keladigan daromad juda past.

Bizga ma'lumki iqtisodiyotni barqaror sur'atlarda rivojlantirish omillaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlik taraqqiyotini ta'minlash hisoblanadi. Prezidentimiz ushbu masalaning muhimligi to'g'risida to'xtalib: "...kichik biznes va tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo'lgan mulkdorlar sinfini, ya'ni o'rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi"⁴⁷, deb takidlagan edilar. Chunki, ushbu soha rivojlanib borayotgan har qanday iqtisodiyot sharoitiga tez moslashuvchan va davlat byudjetiga ham kattagina soliqlar kelib tushushini ta'minlaydi. Albatta bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat muhiti ham tadbirkorlikka salbiy ta'sir etuvchi tashqi yoki ichki omillar vujudag kelishi tabiiy hol.

Shu sababli ham tadbirkorlik sub'ektlari sug'urta xizmatlariga nisbatan ehtiyoj sezadi. Tadbirkorlik risklarini sug'urta qilish xizmatlarining rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatidagi risklarini monitoring qilish, ularning talab va htiyojlarini o'rganish hamda tahlil qilib borishni talab etadi. Ushbu sug'urta turi nafaqat moddiy jihatdan, balki ma'naviy funksiyalarni bajarishini inobatga oladigan bo'lsak, jamiyat hayotida uning ahamiyatini tasavvur qilish qiyin emas.

⁴⁷Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Xalq so'zi" gazetasi 2011 yil 22 yanvar № 16 (5183)

Sug'urta bozorida sug'urtalovchilarning moliyaviy qobiliyatining o'sishi bu bevosita sug'urta kompaniyasining sug'urta bozorida harakatiga bog'liq. Chunki sug'urta mukofotlarining hajmining o'sishi bevosita sug'urta kompaniyasi tomonidan qabul qilinayotgan sug'urta javobgarligiga qo'yiladigan limitga bog'liq bo'lib qolaveradi. Agar sug'urtalovchi tomonidan "o'zida qoldiriladigan ulush" qancha yuqori bo'lsa, demak sug'urtalovchi tomonidan javobgarlik ham sug'urta mukofoti ham shuncha katta bo'ladi. Bu esa sug'urtalovchining moliyaviy imkoniyatlarini yanada oshiradi.

Aynan mazkur sug'urta tizimining samarali yo'lga qo'yilishi mamlakat iqtisodiyotida tadbirkorlik sub'ektlarining ulushini sezilarli darajada oshishiga olib kelishi mumkin. Bunga yorqin misol sifatida xorij tajribasini olishimiz mumkin. Hozirgi kunda xalqaro sug'urta bozori jadal sur'atlar bilan bilan rivojlanmoqda. Sug'urta bozori rivojlangan xorijiy mamlakatlarda sug'urta kompaniyalari asosan 3 turdagi sug'urtalashni, ya'ni benefitlar (hayot va sog'liq, tibbiy, pensiya va hokozo), tijorat (tijoratga oid) va shaxsiy mol-mulkni sug'urtalash (imoratlar, avtomobillarni hamda fuqorolarni boshqa mol-mulklarni)ni amalga oshiradilar. Tijoratga oid sug'urta turi bilan shug'ullanuvchi chet el sug'urta kompaniyalari boshqa faoliyat bilan shug'ullanuvchi kompaniyalarga qaraganda ko'proq daromad olishar ekan.

III bob bo'yicha xulosalar

Bizning mamlakatimizda ham sug'urtalovchilarning moliyaviy holatini o'stirish va sug'urta bozorini rivojlantirish yo'lida hukumatimiz tomonidan samarali ishlar olib borilmoqda. Sug'urtalovchilarning ustav kapitallarini oshirish orqali ular faoliyat turini kengaytirish masalalari yo'lga qo'yib borilmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida yetakchi o'rinlarni egallab kelayotgan "O'zagrosug'urta" DASK (AJ), "Uzbekinvest" EIMSK, "Kafolat" DASK (AJ), ASIA INSURANCE, Kapital, Alskom sug'urta kompaniyalari bozorda faol ishtirok etmoqda.

"O'zagrosug'urta" DASK (AJ) O'zbekiston sug'urta bozorida peshqadam kompaniyalardan biri hisoblanadi. Sug'urta xizmatlarini qulay va tezkor taqdim etilishini ta'minlash maqsadida kompaniya butun Respublika bo'ylab 189 ta hududiy bolinmalar va 492 ga yaqin agentlik shaxobchalariga ega. Bu Respublikaning nafaqat yirik shaharlarida, balki eng chekka hududlarda yashovchi va faoliyat yurituvchilar uchun sifatli sug'urta xizmatlaridan foydalanish uchun katta qulaylik demakdir. 2013 yil yakuniga ko'ra kompaniya bo'yicha yuridik va jismoniy agentlar soni 2242 taga yetdi.

"O'zagrosug'urta" DASK (AJ) 2013 yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta mukofotlari hajmi bo'yicha 21.5%, sug'urta qoplamalari bo'yicha 13.79%, sug'urta sharnomalari tuzish bo'yicha 66.58% ulushga ega bo'ldi. Bundan ko'rinib turibdiki ushbu kompaniya bozordagi xaridorlarni ishonchini oqlayotganidan dalolat beradi.

Milliy sug'urta bozorida faoliyat olib borayotgan sug'urta kompaniyalari barchasi sug'urta salohiyatidan yetarli darajada foydalanaololmayapdi. Aslida sug'urtalovchilarning potentsiali yuqori ekanligini yuqoridagi tahlillardan ko'rish mumkin. Biz sug'urta bozori sig'imini kengaytirish uchun albatta, yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalangan holda sug'urta bozorini rivojlantirishimiz va

bu orqali mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi yuqori darajaga olib chiqishimiz mumkin.

Sug'urta bozori sig'imini kengaytirish uchun sug'urta bozori professional ishtirokchilari tomonidan quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim:

- sug'urtalovchilarning ustav kapitalini oshishi orqali moliyaviy barqarorligini ta'minlash;
- qayta sug'urta faoliyati bilan shug'ullanuvchi sug'urtalovchilarni sonini ko'paytirish;
- sug'urta bozori infratuzilmasini yaxshilash;
- sug'urta bozoridagi sog'lom raqobat muhiti;
- sug'urta kompaniyalariga investitsiyalarni jalb qilish va ularni ishlatishni samarali yo'nalishlarni izlab topish;
- sug'urta maxsulotlarini sotishni yangicha yo'llarini yaratish (marketing, reklama);
- yuqori daromadli sug'urta maxsulotlarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish;
- sug'urta maxsulotlarining sifat va qulaylik darajasi.
- yuridik va jismoniy shaxslarning sug'urtaviy madaniyati;
- yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy holati;
- yuridik va jismoniy shaxslarning sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchi;
-
- yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatiga ta'sir etuvchi risklarning mavjudligi va ularning risklilik darajasi;
- va boshqalar.

Xulosa va takliflar

O'zbekistonda bozor munosabatlari shakllanayotgan hozirgi davrda jamiyatning va iqtisodiyotning turli sohalari barqarorligi va rivojlanishini ta'minlashda sug'urtaning zarurligi namoyon bo'lmoqda va ahamiyati ortib bormoqda. Mamlakat sug'urta tizimining hozirgi ahvoli uning yanada rivojlanishini va kengayishini ko'rsatmoqda. Kompaniyalarning soni va ular ko'rsatayotgan xizmat turlari hamda hajmining kengayib borayotganligi, milliy sug'urta tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professional ishtirokchilarning ko'payib borayotganligi bunga yorqin dalil bo'la oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda milliy sug'urta bozori shakllanmoqda va o'z ishtirokchilariga ega bo'lib, sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab yil sayin to'laroq qondirib borilmoqda deyish mumkin. Ma'lumki, sug'urta bozorida erkin va sog'lom raqobatni ta'minlash uning yanada rivojlanishining omilidir. Bu o'z o'rnida davlatning olib borayotgan sug'urta siyosatiga ham bog'liq. Davlatimiz sug'urta tizimi va bozorini rivojlantirish va takomillashtirish uchun eng maqbul usullardan foydalangan holda, hatto sug'urta kompaniyalarini ma'lum muddatga soliq to'lashdan ozod qilish usulini qo'llash bilan rivojlantirish, sug'urta tizimida faoliyat ko'rsatadigan kadrlarni tayyorlab berish, ishlab turganlarining malakasini oshirish kabi tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Xorijiy investitsiyalarning respublikamizga kirib kelishini kafolatlash bo'yicha davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan yangi qonun va qarorlar ham milliy sug'urta bozorining sig'imini kengayishiga sharoit yaratib beradi.

Respublikamiz milliy sug'urta bozori sig'imini kengaytirish orqali sug'urta bozorining rivojlanishiga erishibgina qolmasdan balki, sug'urtalovchilarni moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarning o'sishi tufayli sug'urtalovchilarni xalqaro bozorga chiqish imkoniyati ham paydo bo'ladi.

Mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda sug'urtalovchilarning sug'urta bozorida faol ishtirok etishi, bozor sig'imini kengaytirish uchun yanada o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanishni talab etadi.

Sababi sug'urta bozori rivojlangan mamlakatlarda sug'urta sohasining YaIMdagi ulushi 8-15 % atrofida bo'lishini e'tiborga olgan holda bizning ham sug'urta bozorimizning YaIMdagi ulushini oshirish bugungi kunda sug'urta bozoridagi muhim muammolardan biri hisoblaniladi. Buning uchun albatta sug'urtalovchilarning moliyaviy va bozordagi faolligini oshirish lozim.

Yuqoridagi izlanishlardan kelib chiqqan holda sug'urta sug'urta bozori sig'imini kengaytirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar deb hisoblaymiz:

1. Sug'urtalovchilarning ustav kapitalini oshishi orqali moliyaviy barqarorligini oshirish. Sababi, bizga ma'lumki sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligining mustahkamligi kompaniyaning sug'urtaviy qobiliyatini oshirish bilan bir qatorda sug'urtalanuvchilar uchun ishonch garovidir. Shuningdek bunday imkoniyat kompaniya uchun xalqoro bozorga chiqish va mamlakatga valyuta olib kelishi bilan sug'urta bozori sig'imini kengayishiga xizmat qiladi;
2. Qayta sug'urta faoliyati bilan shug'ullanuvchi sug'urtalovchilarni sonini ko'paytirish yoki sug'urta poollarini tashkil qilish. Qayta sug'urtani rivojlantirish sug'urta bozorini rivojlantirishga va bozor sig'imini kengaytirishga asosiy omillardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda milliy sug'urta bozorida eng katta muammolaridan biri bu qayta sug'urta mukofotlarining juda katta qismi valyuta ko'rinishida chetga chiqib ketayotganligidir. Bu holat nafaqat sug'urta sohasiga, balki davlatning pul kredit siyosatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Chunki boshqa davlatlar bilan amalga oshirilayotgan barcha qayta sug'urtalash operatsiyalari valyutada amalga oshiriladi va bu qayta sug'urta mukofotlari bilan bir qatorda davlatimizdan valyutaning ham chiqib ketishiga olib keladi. Davlat kumagi ostida sug'urta bozoridagi yetakchi kompaniyalar ishtirokida sug'urta "POOL"ni tashkil etish orqali yuqori hajmdagi risklarni milliy sug'urta bozorimizda sug'urtalash imkoniyatini yaratish. Shu sababli ham ushbu yo'nalishlarni rivojlantirish zarur;
3. Sug'urta bozori infratuzilmasini yaxshilash kerak. Sug'urta bozori infratuzilmasini yaxshi bo'lishi sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Sug'urta bozorining rivojlanish

tendensiyalarini tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi aksariyat ekspertlar va taxlilchilarning fikriga ko'ra, mamlakatimiz mintaqalarida raqobat muhiti sust ko'rinishga ega. Eng achinarlisi, aksariyat qishloq tumanlarida sug'urta xizmatlarini ko'rsatish hamon yagona sug'urtalovchi - "O'zagrosug'urta" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasining tuman bo'limlari tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Haqiqatda, unga raqobatda bo'ladigan tuman bo'limlari aksariyat sug'urta tashkilotlari tomonidan joylarda tashkil etilmagan. Bunday holat ham sug'urta bozori sig'imini kengaytirish uchun noqulaylik tug'duradi. Shuning uchun ham bu holatlarga kompaniyalar tomonidan e'tibor berish lozim.

4. Sug'urta kompaniyalariga investitsiyalarni jalb qilish va ularni ishlatishni samarali yo'nalishlarni izlab topish. Sug'urta kompaniyalariga investitsiyalarni jalb etishning foydali tomonlari quyidagilar:

- ✓ sug'urtalovchilarning ustav kapitalining oshishi va ularning sug'urtaviy imkoniyatlarini kengayishi;
- ✓ sug'urtalovchilarning imkoniyatidan kelib chiqqan holda nafaqat milliy bozorda shuningdek xalqaro bozorga chiqish imkoniyati;
- ✓ sug'urtalovchilarning hududiy filiallari kengaytrishi va raqobat muhitining shakllanishi;
- ✓ qayta sug'urta faoliyati bilan shug'ullanuvchi sug'urtalovchilarni tashkil etish va mamlaktdan hududidan valyuta chiqib ketishini oldini olish .

5. Sug'urta maxsulotlarini sotishni yangicha yo'llarini yaratish va ularni sotishda sug'urtalovchilarning marketing faoliyatini takomillashtirish. Sug'urta bozorida raqobatdosh sug'urta kompaniyasini yutib chiqish uchun, jahondagi rivojlangan mamlakatlar sug'urta kompaniyalarining tajribalaridan ma'lumki, avvalo sug'urta xizmatlarining eng yangi turlariga etiborni qaratish muhimdir, ya'ni:

- ✓ sug'urta kompaniyasining bozorga chiqarayotgan sug'urta mahsuloti reklamasini kuchaytirib, unda yangi sug'urta mahsulotlari tarkibi e'lon qilib borilishi kerak;

- ✓ sug'urta mahsulotini jamiyatdagi eng e'tiborli, obro'li odamlar orqali, ekspertlar orqali baholab bu fikrlarni tarqatish;
- ✓ sug'urtalanuvchilarni yangi sug'urta mahsulotlarining zamonaviy turlariga qiziqishlarini orttirish orqali sug'urta mahsulotiga real mijozlar tayyorlash mumkin;
- ✓ sug'urta bozorida kompaniya chiqarayotgan mahsulotning eng foydali tomonlarini targ'ib qilish orqali xaridorlar fikrini shakllantira olish;
- ✓ yangi sug'urta mahsulotini xaridorlar tomonidan qabul qilinganligi yoki qabul qilinmaganligi sababini tahlil etib chora ko'rish;
- ✓ yuqori daromadli sug'urta mahsulotlarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish.

6. Xorijiy sug'urta bozori tajribalaridan ma'lumki, tadbirkorlik subyektlari ya'ni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sug'urtalash sug'urta bozorida ishlab topilayotgan sug'urta mukofotlarining kattagina qismini tashkil etadi. Shu sababli ham mamlakatimiz sug'urta bozorida ushbu sohani sug'urtalash bo'yicha sug'urta mahsulotlarining yangicha turlarini yaratish va ularni o'z xaridorlariga tavsiya qilish va ularni sotish texnologiyalarini ishlab chiqish kerak.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha xususan mamlakat va ilg'or davlatlar sug'urta sug'urta tizmini qiyoslash O'zbekistonda sug'urta bozori sig'imini oshirishning eng muhim yo'llaridan biri sug'urta kompaniyalarining moliyaviy qobiliyatini tobora mustahkamlash tobora muhimdir. Boz ustiga mamlakat sug'urta kompaniyalarining moliyaviy salohiyati chet el sug'urta kompaniyalarining moliyaviy salohiyatidan hali juda orqada.

Sug'urta tizimidagi mavjud potentsial imkoniyatlarni hisobga olib aytganda, yaqin yillarda sug'urta bozori sig'imining kengayishi, shuningdek yangi turdagi sug'urta xizmatlarining taklif etilishidan darak beradi va uni jamiyat va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni oshib boradi deb umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 1996 yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Sug'urta faoliyati to'g'risida». 2002 yil 28 may (O'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida 2006—2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2006 yil 17 apreldagi PQ-325-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-618-son Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 21 maydagi «O'zbekiston Respublikasida 2010 yilgacha bo'lgan davrda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi “Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-872-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011 — 2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida” 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-son Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2011 yil 31 maydagi PQ-1544-son Qarori

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

9. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. –T.: “O'zbekiston”, 2011y.-528 bet.

10. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.//Xalq so'zi, 2014 yil 18 yanvar.

IV. Asosiy adabiyotlar

11. . Годин А.М., Фрумина С.В. Страхование: учебник. – М.: изд-во «Дашков и К», 2009. – 480 стр.

12. Страхование: учебник/Под ред. Проф. Т.А.Федоровой. – СПб.:Магистр , 2008.-768 с.

13. Страхование: учебник для студентов, обучающихся по специальностям «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит». Под.ред.В.В.Шахова. – М.: изд-во «ЮНИТИ-ДАНА», 2009. – 511 стр.

14. Ochilov I., Sultonov D. Sug'urta hisobi va hisoboti. O'quv qo'llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010 y. – 224 bet.

15. Sug'urta agentlari uchun qo'llanma. – T.: “PRINTXPRESS ”, 2010 y. – 208 bet.

16. Самарова Е. Страховая математика: практический курс. Учебное пособие. – М.: “ИНФРА – М ”, 2009 г. – 80 стр.

17. Страхование. Учебник / под ред. Т.А.Федоровой. – М.: “Магистр ”, 2009 г. – 1006 стр.

18. Рыбин В. Основы страхования. Учебное пособие. – М.: “КНОРУС”, 2010 г. – 240 стр.
19. Никулина Н. Страховой маркетинг. Учебное пособие. – М.: “ЮНИТИ – ДАНА”, 2009 г. – 503 стр.
20. Никулина Н. Страхование. Учебное пособие. – М.: “ЮНИТИ – ДАНА”, 2008 г. – 511 стр.
21. Сербиновский Б. Страховое дело. Учебное пособие. – Ростов н/Д: “Феникс”, 2010 г. – 476 стр.
22. Страхование: экономика, организация, управление. Учебник. – М.: “Экономика”, 2010 г. – 751 стр.
23. Страхование: учебник для студентов, Обучающихся по специальностям “Финансы и кредит”, “Бухгалтерский учет, анализ и аудит” / под. ред. В.В. Шахова, Ю.Т. Ахвледиани. – М.: “ЮНИТИ – ДАНА”, 2010 г. – 511 стр.
24. Erkaev O'.A. O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozori. Ilmiy-ommabop kitob. – T.: Navro'z, 2013 y. – 304 b.
25. Shennaev X.M. O'zbekiston sug'urta bozori. O'quv qo'llanma. – T.: “Moliya-iqtisod”, 2013 y. – 264 b.
26. Shennaev X.M., Baymuratov T.M. Sug'urta ishi. O'quv qo'llanma. – “Turon-iqbol”, 2013 y. – 224 b.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

27. Гаврилова С. Страхование: Учебное пособие. – М.: “Эксмо”, 2010 г. – 304 стр.
28. Галаганов В. Основы страхования и страхового дела: учебное пособие. – М.: “КНОРУС”, 2010 г. – 224 стр.
29. Денисова И. Страхование. Учебник. – М.: ИКЦ “МарТ”, 2009 г. – 240 стр.

30. Игошин Н. Страхование право. Учебное пособие. – М.: “ЮНИТИ – ДАНА”, - 2010 г. – 167 стр.

31. Короткова Ю.Е. Краткий курс по страхованию. Учебное пособие. – М.: Изд. “Окей – книга ”, 2010 г. – 176 стр.

32. Кузнецова И. Страхование жизни имущества граждан. Практическое пособие. – М.: “Дашков и К ”, 2010 г. – 228 стр.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

33. Shennayev X.M. O'tish davri iqtisodiyotida sug'urta masalasi va uni istiqbollari.// "Bozor, pul va kredit" jurnali, 2005. №3

34. Икромов О.Г., Гайбуллаев Б. Ремни финансовой безопасности (обзор страхового рынка – 2008)// Экономическое обозрение, №5-6, 2009 г. С.86-91.

35. Икромов О.Г. Страхование: вчера, сегодня, завтра// Народное слово, 3 июля 2009 г. С.1-2.

36. Имамов Ш.Б. Страхование как средство против кризиса// Народное слово, 5 августа 2009 г. С.1-2

37. Mavlonova N. Aholi sug'urtasi rivojlanmoqda//Bozor, pul va kredit, 2014 yil, №1, 61-b.

38. Обзор страхового рынка Узбекистана по итогам 2010 года//Бизнес-вестник Востока, №3-4/1 13 января 2011 года. стр.8.

39. “Узагросугурта” страховая защита по всему Узбекистану//Бизнес-вестник Востока, №30, 14 апреля 2011 г. – стр.5.

40. Ikromov O.G', Shennaev X.M. O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozori: rivojlanish tendentsiyalari va istiqbollari.// “Moliya” jurnali, 2008 yil 1-son.

41. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

42. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari.

VII. Internet saytlari

43. <http://www.mf.uz> (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).

44. <http://www.UzReport.com> (“SAIPRO” axborot-reyting agentligi).
45. <http://www.agros.uz> (“O’zagrosug’urta” davlat-aktsiyadorlik sug’urta kompaniyasi).
46. <http://www.uzbekinvest.uz> (“O’zbekinvest” eksport-import milliy sug’urta kompaniyasi).
47. <http://www.kafolat.uz> (“Kafolat” davlat-aktsiyadorlik sug’urta kompaniyasi).
48. <http://www.alfainvest.uz> (“Alfa invest” sug’urta kompaniyasi).
49. <http://www.alskom.uz> (“Alskom” sug’urta kompaniyasi).
50. <http://www.kapitalsugurta.uz> (“Kapital sug’urta” sug’urta kompaniyasi).